

Ma'rifat

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 10-noyabr, chorshanba № 46 (9371)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Qog'ozbozlikdan nariga o'tolmayapmiz! O'qituvchi qog'ozbozlikdan ozod qilingani bilan ayrim tekshiruvchilar hamon bizdan olib tashlangan hujjatlarni so'rashmoqda. Yo ular islohotlardan bexabar, yo yuqorining ko'rsatmalariga nopisand qaraydilar.

O'qituvchi nega ortiqcha qog'ozbozlikdan ozod etildi? O'z ustida shug'ullanishi uchun emasmi?

Diloyat OBIDOVA

O'qituvchi farzandi tarbiyasida kamchilik sezilsa, darhol ayblay ketishadi. Avval o'zining bolasiga tarbiya bersin, deya kinoya qilishadi. Biz o'quvchilarimizning ta'limi, balki tarbiyasi uchun ham mas'ulmiz. Ammo o'z farzandlarimiz ortidan eshitgan zarracha yomon so'z qalbimizni yaralaydi. O'ylab qaragam, farzandlarim uchun vaqt ajratmayotgan ekanman. Ba'zida uyga kelgach ham ishimdan ortmayman yoki charchaganimdan tezroq dam olgim keladi.

Xolida ABDUSALOMOVA

Sinf rahbarlariga achinaman, mas'uliyatsiz ota-onalar o'miga kundalik.com uchun o'z hamyonidan pul to'laydi. Ularning o'miga platformaga kiradi. Tezkor internet chekka hududlarda "anqoning urug'i" bo'lgan bir vaqtda qog'oz jurnal eng maqbuli edi. Yoki barcha hududlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimi yaxshilangach bu platformani joriy qilish kerak edi.

Salomat TOG'AYEVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI UMUMTA'LIM MUASSASALARINING MILLIY REYTINGI - 2021



8-9-betlar

"Changi,
O'zbekiston!"

2-bet

Faqat
7 yoshda
maktabga
chiqish

bolaning ayrim
huquqlarini cheklashi
mumkin

3-bet

“O'quvchilarga
bahosini qo'yib
beriyapmiz...”

2-bet

Imkoniyati
cheklangan
iqtidorlar

4-bet

Atirgul ...

11-bet



Toshkentni chang qopladi. Yer-u samo, nafas olay desang — havo, yursang ham tursang ham hammayoq chang! Internetdagi bilgichlarning xabar berishicha, shimoldan kelgan sovuq havo oqimi sabab tuproqning ustki qatlami koʻchibdur, qanot yozib falakka uchibdur. Shundan hammayoq changib ketganmish. Toʻgʻrisi, bu kabi kitobiy gaplarga uncha tushunmayman. Lekin chang borasida oʻzimning ham baʼzi taxminlarim yoʻq emas.

Eshitarga sizdayin tekinuloq topilib turganda, endi bu taxminlarni aytmasak ham boʻlmas:

1. Volidayi muhtaramimiz momomizning momosidan qolgan kigizni olib chiqib qat-tiqroq silkiganga oʻxshaydi. Avvallari ham uning changi butun ovulni tutib ketgich edi.

2. Eski zamonlarda qish-logʻimizdan Nurotaga karvon yoʻli oʻtgan. Hatto Iskandar Maqduniyning ham qadami tekkan deyishadi. Ammo shu qadim yoʻllarning ahvoli bugun xarob. “Yoʻlimizni asfalt qilib bering”, deb oqsoqollarimizning bormagan eshigi qolmadi, biroq bu boruvlardan biror foyda boʻlmadi. Ehtimol, qish-logʻimizning tuproq yoʻllari najotni poytaxtdan istab, bosh urarga oʻz changlarini yubor-gandir(meni sogʻinib kelgan boʻlishlari ham mumkin).

3. Joni uzilay deb turgan maktab kutubxonasiga ins-tagʻromning oʻgay bolalaridan birortasi adashib kirib qol-gan-u, “Bu nima ekan?” deb

kitoblardan birini ehtiyotsizlik bilan ochib yuborganmikan?

4. Tomorqaga ekin ekish kerak, deb otam qoʻlimga ketmon berdi. Bu ketmon tushmagur odam tanlar ekan. Uquvlining qoʻliga tushsa,

har tomon bogʻ-u boʻston, uquvsizga tushsa, san-manga borib oʻtirmay, shartta sinar-kan-qoʻyarkan...

Ketmonimning dastasi sin-di, endi qutuldim-ov, deb tur-gan edim, otam singan ketmon-

dastani u yer, bu yerini yoʻnib, eshakka minsang — xalachoʻp, avjing kelib qoʻshiq aytay desang — gitara boʻlgulik siyoqi bor bir kaltak holiga keltir-di. Soʻng meni qoʻy boqishga joʻnatib yubordi. Lekin bu kaltak qurgʻur ham odam tan-lar ekan. Yaxshi choʻponning qoʻliga tushsa, 10 ta qoʻyi bir qoʻra boʻlar, yomoniga tushsa,

uloqib ketgan dangasa oʻgʻli otamning esiga tushib ket-gan-u, qogʻoz-pogʻozga oʻra-may changitib soʻkib yotganga oʻxshaydi.

5. (Ekopartiyaning saylov-da yutqazganini hamma qabul qilsa ham tabiat qabul qilmadi-mi deymen-da...).

6. Bu chang boʻroniga daraxtlarning kamayib ketgani sabab deb ham eshitdim birov-lardan. Bunda siz aytganday Sitichi akalarning aybi yoʻq. Xoʻsh unda daraxtlarning ka-mayishiga kim aybdor?

Albatta oʻqituvchilar-da! U shoʻrlilikning tagi yumshatilma-sa, oqlanmasa, suv quyib turil-masa, qurimay nima qilsin? Muallimlarning shunday olam-shumul ishlari turib dars oʻta-yotganiga oʻlgim keladi!

7. Oʻqituvchi zotining ham-masi oyliklar oshadi degan gapga chippa-chin ishonib, yer tepib oʻynaganidan hosil boʻlgandir, balki, bu chang.

8. Tahririyatlarning obuna dardida chopib yurgan mashi-nalaridan koʻtarilgan boʻlsa ham ajab emas...

Xullas aytay desak gap koʻp. Shunisi ayonki, Ulugʻ qudrat “Changi, Oʻzbekiston” demaganida Yangi Oʻzbekis-tonimiz changimagan boʻlardi.


Ibn TUFRUQIY

“Changi, Oʻzbekiston!”



“Oʻquvchilarga “3” bahosini qoʻyib beryapmiz...”

Har qanday ixtiro yoki innovatsiya vaqt oʻtishi bilan oʻz ahamiyatini yoʻqotadi, bu tabiiy hol, albatta. Ammo maktab taʼlimi hech qachon oʻz dolzarbligini yoʻqotmaydi.



Oʻzini shu jamiyatning muhim boʻlagi deb hisoblagan har qanday shaxs mavjud kamchilik va muam-molarga jim qarab turolmaydi. Ayniq-sa, u kelajak avlodning taʼlimi bilan bogʻliq boʻlsa. Men geografiya fa-nidan dars beraman. Mashgʻulotlar davomida ushbu fan darsligidagi qa-tor kamchiliklar noqulaylik tugʻdira-di. Nazarimda, darslikda geografiya

qotib qolganday, yaʼni men oʻqigan oʻtgan asrning 75–80-yillaridagi mav-zular. Axir bugunga qadar qancha oʻzgarishlar boʻlib oʻtmoqda. Dunyo manzarasi, hattoki, kundan-kunga oʻzgarimoqda. Qolaversa, buyuk aj-dodlarimizning geografiyaga oid fikr-lari, ular qoldirgan bebaho maʼnaviy meros darsliklarda kengroq yoritib berilsa, oʻquvchilarda Vatan tarixi-

ga nisbatan faxr hissi uygʻonadi deb oʻylayman.

Yana bir jihat, 5-sinf geografiya darsligida oʻquvchilar tushunishi qiyin boʻlgan azimut, joy plani kabi mav-zular kiritilgan boʻlib, bu mavzular yuqoriroq sinflarda oʻtilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi. Shuningdek, 6-sinf-da materiklar va okeanlar geografiyasi oʻtiladi. Biroq oʻquvchi oldin oʻz yurti baland-pastligini, geografiyasini oʻr-gansa, mavzularni oʻzlashtirishi va tushunishi osonroq kechadi.

Soʻnggi paytlarda ayrim maktab direktorlarining nomunosib hara-katlari qulogʻimizga koʻp chalin-moqda. Masalan, direktor fonding baʼzi direktorlar va atrofidagi bir guruh maslakdoshlari tomonidan talon toroj qilinayotgani, bu esa yax-shi dars berayotgan insofli, diyonatli oʻqituvchilarning ishchanlik ruhini susaytirayotgani ham achchiq haqiqat. Shuningdek, baʼzi maktab direktorlari “maktab xarajati” deb, oʻqituvchilar ish haqidagi 10% naqd pulni har oyda olib qolishlari ham bor gap. Mavjud muammolarni hisobga olgan holda barcha tumanlar kesimida maktablar-dagi tartib-intizom, ayniqsa, direktor fondining taqsimlanishini monitoring qilib, natijalari OAVda yoritilishi mazkur masalani biroz boʻlsa-da ijobiy tomonga oʻzgartirishi mumkin.

Endi taʼlim jarayoni bilan bogʻliq boshqa takliflarimni bildirsam. Fikrimcha, boshlangʻich taʼlim-da diplomidan qatʼi nazar, eng sara oʻqituvchilar dars bermogʻi lozim. Masalan, maktabimizda 15 yildan ortiq faoliyat koʻrsatayotgan Gʻay-rat Safarov, nafaqat qishlogʻimiz, balki tumanda ham eng yaxshi boshlangʻich sinf oʻqituvchilaridan hisoblanadi. Yaqinda uni ishdan boʻshatishdi. Aybi oliy maʼlumot diplomiga ega emasligi. Oʻrniga esa 1-kursni shu yil bitirgan oʻz oʻquv-chimizni qoʻyishdi.

Shuningdek, dars ishlanmasi, yaʼni konspekt yozish bekor qilindi. Vaholanki, oʻqituvchi oʻz qoʻli bilan konspekt yozsa, esdan chiqqan ayrim sana va voqealar yodga tushadi. Yana, qoloq, darslarni oʻzlashtira olmagan oʻquvchilarni sinfda qoldirish joriy etilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi. Biz esa darsga, hatto davlat imtihonlariga kelmagan oʻquvchilarga ham “3” ba-hosini qoʻyib beryapmiz. Axir, bu ke-lajakka xiyonat emasmi?!

Xulosa qilib aytak, taʼlim jara-yonida bunday kamchilik va muam-molar yetarli. Ularni yashirish emas, aksincha, birgalikda oʻrganib, yechim topish lozim.

Sherali OʻTANOV,
Kattaqoʻrgʻon tumanidagi
83-maktab oʻqituvchisi

Taklif

Faqat 7 yoshda maktabga chiqish bolaning ayrim huquqlarini cheklashi mumkin

Shveysariyada ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, yuqori o'rta ta'lim, professional ta'lim va oliy ta'lim shaklida tashkil qilingan.



Boshlang'ich va o'rta tayanch ta'lim bepul bo'lib, boshlang'ich ta'limga 5-6 yoshga to'lgan bolalar qabul qilinadi (Qiyoslash uchun: O'zbekistonda 7 yoshdan 1-sinfga qabul qilinadi) va o'rta ta'limni 15-16 yoshda tamomlashadi. Boshlang'ich va o'rta ta'limni tugatgan o'quvchilarga 26 ta kantonda turlicha ta'xis etilgan sertifikat-shahodatnomalar beriladi. Ular turlicha bo'lishiga qaramay, Yevropaning barcha hududlarida tan olinadi.

Shveysariyada boshlang'ich ta'lim muassasalarining aksariyatida bolalar bog'chasi mavjud. Ushbu maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim dargohining bir muassasada jamlanishi bolalar ta'limining keyingi bosqichiga oson moslashishiga hamda boshlang'ich ta'limga 5 yoki 6 yoshdan layoqatli bolalar saralanishiga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich maktablarda ta'limning asosiy e'tibori xorijiy tillarni o'zlashtirishga qaratiladi hamda har bir kantonda turlicha shaklda, haftasiga 20-32 ta dars mashg'ulotlari o'tilishi mumkin. Boshlang'ich maktabda bolalar taxminan 6 yil ta'lim oladi. Shundan so'ng ular o'rta sinflarga o'tadi. O'rta tayanch maktab "Secondaire I" deb nomlanib, bunda o'quvchilar 3-4 yil o'qiydi. "Secondaire I" o'rta ta'limining birinchi bosqichi yakunida o'quvchilar o'zlashtirganlik darajalari bo'yicha quyidagi shaklga bo'linadi:

— "Secondaire I"ni muvaffaqiyatli tugatganlar "Secondaire II" ga, ya'ni o'rta maktabning ikkinchi yuqori bosqichiga o'tadi. Ikkinchi guruhda yaxshi o'zlashtirilmaganlar professional ta'lim (Maturité professionnelle)da kasb-hunar o'rganishga yo'naltiriladi.

— "Secondaire II"ni tugatganlarga umumiy o'rta ta'limni tugatganligi haqida attestat (Maturité gymnasiale) beriladi.

— Professional ta'limga yo'naltirilgan o'quvchilar, "Secondaire II" ta'lim bosqichidan farqli ravishda haftanin 2 kuni darsga boradi. Qolgan kunlari o'zlari tanlagan yo'nalishdagi kasb-hunar bo'yicha ishlab chiqarish, korxona-tashkilotlarda amaliyot o'taydi. O'qishning ushbu turini tamomlagan o'quvchilarga o'rta professional ta'lim ma'lumoti (Maturité professionnelle) attestati beriladi.

2015-yilda o'tkazilgan PISA testi natijalariga ko'ra, Shveysariya maktab o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida 15-o'rinni egallagan.

U yerda kantonlarning sinflar o'lchovlariga qarab har bir sinfning o'quvchilari soni chiqariladi. Boshlang'ich, tayanch o'rta, "Secondaire I", "Secondaire II" maktab bosqichlarida har bir sinfda 23-25 nafar o'quvchi o'qishi mumkin (Qiyoslash uchun: O'zbekistonda 35 nafar o'quvchi bir sinfda o'qishiga ruxsat beriladi).

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 9-moddasi yettinch xatboshisida "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfga bolalar, ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi", deb belgilangan. Ammo bolalarning aqliy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, ayrim bolalar 5-6 yoshdan boshlang'ich ta'limni mustaqil o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Qonunchilik talabi bo'yicha bolalar faqat 7 yoshga to'lgan yoki to'ladigan yili boshlang'ich ta'limga qabul qilinishi ularning erta ta'lim olish huquqlari cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shveysariya qonunchiligida esa bolalar 5-6 yoshga to'lganlaridan so'ng, layoqatiga qarab boshlang'ich maktabning 1-sinfga qabul qilinadi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ham ayrim hollarda 5-6 yosh bolalarning layoqatini aniqlash orqali birinchi sinfga qabul qilinishi masalasini ko'rib chiqish kerak.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intel-

lektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turi hisoblanishi, maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunining 25-moddasiga asosan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan to'lovlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Shveysariya tajribasidan kelib chiqib, bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy tayyorlash yoshini 5-6 yosh hamda bepul qilish, shuningdek, ushbu yoshdagi bolalarga umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya berilishi yoki maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim muassasalarining bitta binoda faoliyat yuritishini ta'minlash orqali bolalarga ta'lim va tarbiya berish taklif etiladi. Natija, ta'lim olishga layoqatli bolalarning erta aniqlanishiga hamda bolalarning boshlang'ich ta'lim muhitiga moslashishiga imkon beradi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 9-moddasi o'n to'rtinchi xatboshisiga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Umumta'lim maktablarida bir sinfda o'quvchilar sonini ko'pi bilan 25 nafar etib belgilash lozim. Natijada o'qituvchining sinfdagi bolalar bilan shaxsan mashg'ul bo'lishi va ularga ko'proq vaqt ajratishiga, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'quv fani sifatli o'zlashtirilishiga erishilishi mumkin.

Akbar AHROROV,
Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi
bosh maslahatchisi

O'zimizning qora tuynuk

Qimor o'yini kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. U qadimdan ma'lum va mashhur. Dastlabki ko'rinishlarini qo'chqor va xo'roz urushtirish o'yinlarida, odamlarning qaysidir tomonga pul tikishga ruju qo'yganida ko'ramiz. Bularda bir nechta odam, boringki, butun bir qishloq ommasi ishtirok etgandir. Ammo bugun-chi?

Bugungi kunda qimorning 1Xbet, mostbet, melbet, linebet, satumbet kabi zamonaviy turlari keng tarqalmoqda. Ularni internet orqali onlayn o'ynash imkonini yaratilgan. "Totalizator" deb ataluvchi bu kabi o'yinlar soni kundan kun ortib bormoqda.

Bu o'yinlar bir qishloq odamini emas, butun yer sharidagi odamlarni o'z domiga tortmoqda. Ayrim yoshlar bu kabi o'yinlarga pul topishning oson yo'li sifatida qaramoqda.

O'lmas Umarbekovning "Fotima va Zuhra" romanida ma'naviyatimizdagi bu kemtiklik sarguzasht yo'sinida aks ettiriladi. Asarda halol, diyonatli o'qituvchi Abdulla-

jonning oilasi taqdiri misolida ezgulik va yovuzlik o'rtasida omonsiz kurash ketadi. Kenja og'il Hamidullaning jinoyatchilar to'ldasiga qo'shib qolishi, shubhasiz bu uning kitobdan uzoq, ilmsiz inson ekanligidan dalolat beradi. Hamidulla qimorda, hatto o'z jigarbandi — singlisini boy beradi...

Yurtimizda bunday o'yinlarni cheklash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustda "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq qimor o'yinlari man etilgan.

Shuni a'chinarlik, bu kabi o'yinlar maktab o'quvchilari va talabalar orasida chuqur ildiz otib ulgirdi. Nahot, hozirgi ota-onalar shunchalik bee'tibor? Balki ular farzandlariga ham islomiy, ham dunyoviy tomondan bu kabi o'yinlarni o'ynash yaxshi emasligini tushuntirganlarida, o'ynovchilar soni kam bo'larmidi...

Qur'onda shunday deyiladi: "Sizdan sharob va qimor haqida so'raydilar. Ayting: "Ularda katta gunoh va foydalar bordir. Gunoh esa foydadan buyukroqdir"... O'yin o'ynash uchun bankdan kredit olib, uni to'lmay yurgan ayrim kimsalarni bilaman. Shuni si ma'lumki, qimorda faqat uni o'ynatgan odamgina g'olib bo'ladi.


Sizga eng yaxshi investor bu — o'zingiz. Eng yaxshi investitsiya bu ilmga tikilgan investitsiya. U sizga ikki dunyo saodatini beradi. Kitobga oshno tutingan qabllar bu ishlarga olmosdan qimmat umrini xazon qilmaydi.

Umarbek O'ZBEKOV,
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Maxsus ta'lim

Imkoniyati cheklangan iqtidorlar

Biz, insonlar kamroq harakat va ko'proq foyda istab "imkoni yo'q", "iloji yo'q" deya bahonalar topishga ustamiz. Ammo jismida, aqliy faoliyatidagi nuqsonlariga qaramasdan jamiyatga qo'shilish, shu bilan birga o'zini namoyon etish uchun kurashib kelayotgan, iqtidorlarini namoyish etayotganlar talaygina. Ularning jismonan va aqlan yetuk insonlar kabi ijtimoiy jamiyatda borliklarini bildirishga intilayotganini ko'rib o'zga to'ldiradi kishi...



Yurtimizda ham bu kabi qatlam vakillarining vaqtini unumli o'tkazish, hayotda o'z o'rinlarini topishlari, shuningdek, ta'lim-tarbiya berish, korrektsiyalash va davolash-sog'lomlashtirish uchun maxsus ta'lim maskanlari, kasbga tayyorlovchi maktab va maxsus kollejlarda faoliyat yuritmoqda. Albatta, ota-onalar biror irsiy kasallik yoki tashqi ta'sirlar oqibatida dunyoga kelgan farzandlari jamiyatning boshqa qatlam vakillari bilan barobar kamol topishlarini istashadi.

Shunday jamiyat uchun tayyorlov dargohlaridan biri shahrimizning Uchtepa tumanida joylashgan 199-imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktab hisoblanadi. Nomidan ma'lumki, ushbu maskan aqliy va jismoniy faoliyatida nuqsoni bor bolalar uchun tashkil etilgan. Lekin maktabda ta'lim olib, iste'dodlari orqali sog'lom kishilar kabi anchayin faol harakat qiladigan o'quvchilar talaygina. Ba'zilar pishiriq pishirsa, boshqasi tikuvchilikni qunt bilan o'rganadi, o'g'il bolalar esa temirchilik, ustachilik hunarini o'rganishga qiziqishlarini ko'rib hayratlanadi kishi. Ayniqsa, bolalarning eng sevimli mashg'ulotlariga aylangan raqs, qo'shiq kuylash bo'yicha to'garaklar maxsus

jihozlangan xonalarda olib boriladi. O'quvchilarning ishlari har oy ko'rgazmalar tashkil etish orqali ota-onalarga, mahalla vakillari va boshqa qiziquvchilarga namoyish etiladi.

Bu bolalar boshqa maktab o'quvchilariga qaraganda ancha mehr va e'tiborga muhtoj. Shu sababli maskanda ta'lim va tarbiya berayotgan ustoz-muallimlar kasbiga sadoqatli, bolalarga o'z farzandi kabi qaraydigan pedagoglardir.

Maktab sport va kasbga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkazish uchun kerakli barcha anjom, asbob-uskunalar bilan ta'minlangan. Agar siz bu yerga tushlikdan so'ng kelsangiz, "Sartaroshlar" nomli to'garak faoliyatiga guvoh bo'lasiz. Muassasada biror o'quvchi e'tiborsiz qolmasligi yoki bekor o'tirmasligiga, barchasi bo'lajak hunarmand yoki sportning biror sohasi vakili bo'lishiga ishonchingiz paydo bo'ladi.

Bu dargoh mo'jazgina kutubxonaga ham ega bo'lib, unda 400 dan ortiq kitoblar jamlangan.

Ulamni chetdan kuzatar ekanmiz, biz yaxshi tushunib yetmasak-da o'zaro nimalarnidir so'zlashishlari, biz bilmagan dunyolari borligini ko'rish mumkin. Bolalarning qo'llaridan yaralgan buyumlar esa havasizingizni oshirib, aqlingizni shoshiradi.

Yaqinda ushbu maktabda siz toz va murabbiylar uchun kichik bir tadbir tashkil etildi. To'g'ri, bu oddiy maktablardagi tadbirlarga qaraganda biroz mehnat va mashaqqat talab etadi. Lekin bolalarning o'z qo'llari ila yaratgan sovg'alari bejirimligi bilan tadbirga o'zgacha fayz berdi. Bundan tashqari, qo'llarining harakatga layoqati yo'qligiga qaramasdan oyoqlarida bo'lsa-da hayot go'zalliklarini o'zi ko'rgan ranglar bilan tasvirlayotgan Sabina ismli qizcha ham shu maktabda ta'lim oladi. Uning shu kungacha oyoqlarida yaratayotgan suratlar ko'plab tanlovlarda faxrli o'rinlarni olgan. Shuningdek, Xayrullo ismli bola bugun qo'l mehnati — ustachilik hunarini qunt bilan o'rganib, ajoyib buyumlar yasash barobarida aqlan sog'lomlar uchun ham birmuncha mashaqqatli hisoblangan shaxmat bo'yicha respublika musobaqalarida ishtirok etib, maktab faxriga aylangan. Bu kabi imkoniyatidan unumli foydalanib, jamiyatga qo'shilishga harakat qilayotgan yoshlar talaygina.

Jamiyatda nuqsoni bor insonlarga nisbatan "kasal" degan qarash mavjud. Bu esa ularning hayotga bo'lgan mehrini so'ndirishi tabiiy. Ushbu fikrlarni bartaraf etish, tenglikka erishish maqsadida maktabning fidoyi xodimlari doim xizmat-

da. Dargohda tahsil olayotgan qorako'zlar haqida batafsilroq bilish maqsadida maktab shifokoriga yuzlanganimizda quyidagicha izoh oldik: "Maktabdagi bolalar tashqi ko'rinishi bir qarashda sog'lomdek ko'rinadilar, yashirin ravishda kasalliklari mavjud. Ayrimlarida esa bu holat yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu maktabga, asosan, aqliy zaiflikning F-70 guruhiga kiruvchi, daun sindromi, DTSP, anemiya, shaytonlash sindromi bilan tashxis qo'yilgan bolalar qabul qilinadi". Maktabdagi kichik sinfonani kichik jamiyat deb bilsak, bu jamiyatda tarbiya olayotgan bola asta-sekinlik bilan bo'lsa-da ijobiy xarakterlarini ko'rsata boshlaydi.

Ota-onalar har tong bolalarini maktab ostonasiga olib kelishlarini kuzatgan kishi ularning yuz-ko'zida cheksiz umid hissini ko'rish shubhasiz. Farzandining oz bo'lsa-da bu kasalliklardan forig' bo'lishini istashlari ko'rinib turadi.

To'g'ri, maktabga kelgan bola butkul sog'lom bo'lib qolmaydi, ammo atrofida voqealarga biroz bo'lsa-da munosabatda bo'lishni, eng asosiysi, o'ziga o'zi xizmat qilishni o'rganadi. Bunda, albatta, o'qituvchi va ota-onalarning hamkorlik bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, har bir insonning o'z olami bor. U o'zi tasavvur qilgan ranglardagina go'zal va maftunkor. Biz mana shu imkoniyati cheklangan bolalar ko'nglini asrashimiz, ke-lajakda boshqa tengdoshlaridek erkin harakat qilishi va mustaqil fikrlashlariga yordam berishimiz kerak.

Gulnora SHERMATOVA

Fikr

Qush uyasida ko'rganini qiladi...mi?

Bugungi kunda "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona", "qo'shning tinch — sen tinch" degan xalq maqollari o'z ahamiyatini yo'qotqanday, nazarimda. Chunki yon qo'shningizning bolasi noma'qul harakat qilayotganini ko'rsangiz, urishib berolmaysiz, negaki, onasi xafa bo'lib qoladi. "Oldin o'zining bolalariga tarbiya bersin" degan dashnomni ham eshitmay qolmaysiz. "Suyunchi" filmidagi Anzirat buviga o'xshab bugungi keksalarimiz ham mahalladagi har bir bolaga dakki berolmaydi.

Bolani urib-urishib tarbiyalash kerak, degan fikrdan yiroqmiz. To'g'ri, o'quvchiga qo'l ko'targan, uning sha'niga, g'ururiga tegadigan gaplarni aytuvchi, jahlini bosib tura olmaydigan o'qituvchilar ham bor. Ammo turli muhitda tarbiya topayotgan 30–40 nafar bolaga birdan munosabatda bo'lish oson emas. Ayniqsa, bugungi davr bolasi internet bilan ulg'aymoqda. Psixologlarning ta'kidlashicha, o'smir yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy jihatdan ulg'ayishi tezlashib bormoqda. Ya'ni, bolalar yoshidan avval ulg'ayib qolishmoqda. Ularning fiziologik normativlari ham oldingi avlodlarga solishtirganda, ancha ildamlagan. Ana shunday kayfiyatdagi o'smirlar ta'lim berish muallimidan anchagina sabr-toqat, pedagogik mahorat va ruhiy yondashuvni talab etadi. Aslida muammolarning birgina sababi, ota-onalarning farzandi oldidagi mas'uliyatini his eta olmasligidir. Mas'uliyat degani o'z javobgarligini his qilish, yelkasida muhim vazifalar turganini anglashdir. Bugungi kunda ota-

onalar o'z farzandi kelajagi uchun qay darajada o'zlarini mas'ul hisoblaydi? Bu savolni eshitgan borki, "juda yuqori darajada", "hozir aksariyat kishilar farzandlarining o'qishi, yaxshi yeb-ichib, chiroyli kiyinishiga e'tibor bermoqda", "yaxshi oliy o'quv yurtida tahsil olishi uchun jon kuydirib, chet tillarini o'rganishiga keng yo'l ochib bermoqda" deyishi mumkin. Biroq mas'uliyat birgina bu bilangina belgilanmaydi. Bola tarbiyasi, xulq-atvori haqida gap ketganda kimdir bu mas'uliyatni maktabga yuklasa, yana biron ota-ona zimmasida degan fikrda. Ammo bu vazifani o'zidan soqit qilish yoki boshqaning burchi sifatida loqayd qarash jamiyatimiz uchun qimmatga tushadi. Farzandlarimizga bilim berish barobarida ularga kattalarni hurmat qilish, ustozini e'zozlash, jamoada o'zini madaniyatli tutish kabi sifatlarini o'rgatish juda muhim.

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bejiz aytilmagan. Tarbiya beriladigan mas-

kan bo'lmish oilada axloq-odob izdan chiqqan bo'lsa, bolaning yurish-turishiga befarq qaralib, kunda mojarodan bosh chiqmasa, unday maskandan nafas olayotgan navnihol bolakaylar qanday qilib axloqiy sifatlarini egallab olsin? O'qituvchining o'ziga qattiqqo'lligini "zulm" deb bilgan ota-bolasining yonini olib, muallimga do'q-bo'pisa qilsa, o'spirin yigit qanday qilib ustozini hurmat qiladi? Mahalla-ko'y va faol oqsoqollar sodir bo'layotgan xunuk holatlarni ko'rib-bilib aralashmay jim turishsa, "yangi nag'malar"ning ortib borishiga sababchi bo'lmaydimi?

Savollar ortidan savol tug'iladi, ammo javobga kelganda, yelkamizni og'ir yuk bosadi. Ehtimol ota-onalar yig'inlarida tez-tez yoshi ulug' otaxon-u onaxonlari, imom-xatiblar, mahalla faollari, ibratli oila sobhilar, mehnatidan baraka topayotgan kasb egalari taklif qilinib, ularning ibratli suhbatlari ko'proq tinglansa, yoshlar orasida mehr-oqibat, kattalarga, ustozlarga bo'lgan hurmat-e'tibor, insoniy fazilatlarini yo'qolmaydi. Bolalarimizni boshlang'ich ta'limdan boshlab mehr bilan tarbiyalash, shirin so'z bilan o'qishga chorlash zarur. Ular shu kichik yoshidan yomon so'z aytish va tengdoshlarini urib-so'kishga botinolmasligi kerak. Chunki oq qog'ozdek toza bola qalbi faqat ezguliklar, mehr va samimiy hislarga loyiq.

Sayyoraxon ABDULLAYEVA,
Yangiyo'l tumanidagi
2-maktab direktori o'rinbosari

Dolzarb mavzu

Kashfiyotchilar

maktab davridayoq kashf etilishi zarur



Diyorimiz dunyo tamadduni markazlaridan biridir.

Respublikamiz hududidagi bebaho arxeologik, me'moriy va yozma yodgorliklar, ota-bobolarimizning qadoq qo'llarida bunyod bo'lgan koshona-yu saroylar, amaliy san'at va xalq ijodiyoti namunalari barchasi xalqimizning boy tarixiy-ma'naviy merosidir.

Farg'ona vodiysida mavjud 250 dan ortiq madaniy meros obyektlaridan 140 dan ziyodi arxeologik yodgorliklardir. Ularni o'rganish, avaylab-asrash va kelajak avlodlarga benuqson yetkazish sharaflari burchimizdir. Farg'ona o'lkasining qadimgi poytaxti Axsikent — muhim tarixiy ahamiyatga ega. Ko'hna shahardan 90 gektarga yaqin joy saqlanib qolgan.

Moziy pinhonlarini fanga "fosh qilish" savoblidir. Insoniyat to'fon, toshqin, ko'chki, zilzila kabi ko'plab tabiiy ofatlarni boshidan kechirgan. 1621-yili ro'y bergan dahshatli yer silkinishi sabab vodiydagi qator shahar-u qishloq xarobaga aylandi. Hatto nomlari tarixdan izsiz o'chdi. Ammo olimlarning izlanishlari tufayli ularning vayronaga aylanish sabablari ilmiy ravishda mukammal o'rganildi.

O'z o'rni Vazirlar Mahkamasi-ni 2017-yil 16-oktabrda "Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida "Axsikent" arxeologiya merosi obyek-tini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi qarorining e'lon qilinishi Axsikent tarixi qaytadan o'rganilishi uchun asos bo'ldi.

Prezidentimizning Namangan viloyatiga, xususan, Axsikent majmuasiga tashrifi yodgorlikni "Ochiq osmon ostidagi muzey"ga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbari Axsikent — temuriy zoda Umarshayx mirzo davlatining poytaxti bo'lganini, shahar tarixini birlamchi, ishonchli man-balar asosida yangidan yozib xalqqa yetkazish lozimligini uqtirish barobarida arxeologiya fanini rivojlantirishga doir ba'zi takliflarini bildirdi:

➤ Axsikentda respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari tarix va arxeologiya yo'nalishi talabalarining dala amaliyotini o'tkazish;

➤ har ikki yilda "O'tmishga sayohat" deb nomlanuvchi xalqaro tarixiy, arxeologik-etnografik festival tashkil etish;

➤ maktab o'quvchilarining o'tmishga qiziqishini uyg'otish maqsadida muntazam ekskursiyalar uyushtirish;

➤ "Yosh qadimshunoslar" maktabini tashkil etish;

➤ safar taassurotlari asnosida ish-solar tanlovini o'tkazish;

➤ Bu ishlarni "Buyuk tarixdan buyuk kelajak sari" shiori ostida bosqichma-bosqich amalga oshirish;

➤ "Barhayot ajdodlarimiz" ruknida ulug' shaxslarimiz haqidagi broshuralarni nashr etish va viloyatimizdagi o'quv dargohlariga yetkazish.

Maktablarda haftasiga 2 marta sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish, turli yodgorliklarga ekskursiyalar uyushtirish o'quvchilarni ijodiy faoliyatga undash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga hamda aqlan, jismonan kamolotga yetaklashga xizmat qiladi.

Oldinlari bunday ishlarga hamma rahbar ham xayrixohlik bilan qaramasdi. 1986-yili To'raqo'rg'on-dagi pioner va o'quvchilar uyi qoshida tarixchi Alijon Vohidov tashabbusi va rahbarligida "Yosh arxeolog" to'garagi tashkil qilindi. Alijon aka o'sha kezlarda Fanlar akademiyasi Samarqand Arxeologiya instituti ekspeditsiyasi tarkibida ham faoliyat yuritardi. To'garak faoliyati qator tarixchi olimlar va professorlarning uslubiy tavsiyalari asosida yo'lga qo'yildi.

O'lka tarixiga qiziqqan o'quvchilar uchun nazariy mashg'ulotlar: eski o'zbek yozuvi(arab alifbosini)ni o'rganish, numizmatika bilan shug'ullanish tashkil etildi. Me'moriy va arxeologik yodgorliklarga ekskursiya-sayohatlar uyushtirildi. Tematik tadbir va qazish ishlari orqali o'quvchilarda amaliy bilim, ko'nikmalarni shakllantirishga erishildi. To'garak a'zolari qadimiy manbalar asosida qal'aning tuzilishini o'rgandi. Axsikentdagi qazilma ishlarga jalb qilinib, jarayonlarda bevosita ishtirok etdi. Yozgi ta'tilda bir oy muddatga tumandagi 29-maktabga joylashib, amaliyot boshlashdi.

1989-yili viloyat arxeologiyasida ulkan yutuqlarga erishildi. Bulardan biri akademik A.Asqarov rahbarligida A.Anorboyev va B.Matboyevlar tomonidan Pop shahri Munchoqtepa yodgorligida qamish tobutlar topib o'rganilgani bo'lsa, ikkinchisi, Alijon Vohidov boshchiligidagi to'garak a'zolari tomonidan Axsikent arxeologiya merosi obyekti yeroosti suv inshootining nazorat punkti noyob topilma sifatida kashf etildi. Bu zahmat-kash o'qituvchi to'garagi faoliyatidagi salmoqli natija, katta kashfiyot edi.

A.Vohidov mashg'ulotlarda tinglovchilarga arab, fors va turkiy manbalar haqida tushunchalar berdi. Topilgan tangalar eski o'zbek yozuvi(arab imlosi)daliq bois, o'qish qoidalari-ni ham o'rgatdi. Yosh arxeologlar numizmatikaga oid yozuvlarni ham o'qish imkoniga ega bo'ldilar. Sopol buyum qoldiqlarini o'rganish usullari, xususan, ular tasvirini chizish, rasm va yozuvlarni qog'ozga tushirish, ranglari asosida davrni aniqlash, butlash kabilar o'rganildi.

Nazariy mashg'ulotlar asosan Axsikent va Chust tumanidagi Yumaloq-tepa arxeologik yodgorligidan chiqqan moddiy ashyolar negizida o'tilardi. Dastlabki saboqlar ashyolarni yuvish, ta'mirlash, davri va qanday ashyolardan tayyorlanganini aniqlashga yo'naltirilardi. Ikkinchi bosqichda ashyolar umumiy tavsiflanib, ularda aks etgan arab, so'g'd va boshqa yozuvlar haqida tushunchalar berilar edi.

A.Vohidov arxeologiya ixlosmandlarini yagona markazga jamlay oldi. Asosiy maqsad, arxeologiya sohasini rivojlantirish uchun milliy kadrlar tayyorlash ishini samarali yo'lga qo'yish edi. 1989-yili O'zR FA Arxeologiya instituti xodimlari A.Anorboyev va I.Ahro-rov yosh arxeologlarga Axsikent ichki shahristoni devorini kesib o'rganish vazifasini ishonib topshirishdi.

O'zbek arxeologiyasi otasi sanalmish akademik Yahyo G'ulomov "Arxeologik qazishma jarrohlik operatsiyasiga o'xshaydi" deya bejiz aytgan.

O'quvchilarda qariyb uch yillik nazariy-amaliy bilimlarini sinash imkoniyati vujudga keldi. Shahristonni qazish jarayonida ichki mudofaa devoridan masofalar o'lchanib, ish soat 7:00 dan 11:00 gacha davom etar, so'ngra topilgan moddiy ashyolarni yuvish, chizish, saralash bilan shug'ullanilardi. Yeroosti suv inshooti nazorat punkti o'quvchilar qanday kashf etganini A.Vohidovning shogirdlari quyidagicha xotirlaydi: "Qazish payti ichki shahriston devorining janub tomonidan (hozirda konservatsiya qilingan obyektning shimoliy tarafi) daf'atan bir metr joy o'pirilib tushdi. Chuqurlikdan pastda zinapoya borligi va yeroostida ark uslubida ishlangan inshoot mavjudligi aniqlandi. Shundan so'ng devorni kesish ishi to'xtatilib, kovlab o'rganishga barcha kuch safarbar qilindi. Hatto tamaddi qilish ham o'quvchilar yodidan ko'tarilgandi. Ulkan kashfiyotdan hayajon, ko'zlarida quvonch porlagan o'quvchilar o'ta ehtiyotkorlik bilan suv inshootining nazorat xonasini mutaxassis arxeologlar kabi ochdilar. Bu lahzalar ular hayotidagi unutilmas voqea edi. O'quvchilar mazkur inshoot, uning qal'a uchun nechog'li ahamiyatligi haqida maroq bilan suhbat qurishar, o'zlarini kelajakda mashhur arxeolog sifatida tasavvur ham etardilar".

Pillapoyaning boshlanishidan topilgan o'choq va palaxmontosh, simob idishlar kabi ashyolardan ushbu obyekt strategik jihatdan ahamiyatga ega, deb xulosa qilish mumkin edi. O'quvchilar zinapoyalarni tozalab, nazorat inshootidagi tonnel ichidagi tuproqni ehtiyotkorlik bilan olib chiqishdi. Bu yangilik o'sha kezlarda chiqadigan tumanning "Mash'al" gazetasida yoritildi.

1990-yili qazish ishlari qaytadan boshlanib, topilgan buyumlar o'rganil-

di. Mavsumda ichki shahriston devori ostidan pishgan g'ishtdan qurilgan inshootlar vayronalari, devor va xonalar o'rni ham chiqdi. Peshonasini ikki dona g'isht bosib qolgan odam skeleti topilganda ko'hna Axsikent shahri qattiq zilzila oqibatida buzilgani ma'lum bo'ldi.

Afsuski, o'sha davrda zamonaviy ilm-fanning ta'lim oldiga qo'yayotgan vazifalarini fahmlamagan yoki tushunishni istamagan, siyosiy dogmalar ta'siridagi ayrim loqayd kimsalar talabi bilan to'garak faoliyati to'xtatildi va uning rahbariga qator ta'na-malomatlar qilindi. Ammo domla haqiqat baribir qaror topishiga ishonardi. Bundan chorak asr ziyod boshlagan ishlarini amalga oshirishga bugun imkoniyatlar tug'ilgani nafaqadagi fidoyi pedagog Alijon akani cheksiz xushnud etdi.

"Shavkat Mirziyoyevning e'tiboridan so'ng, Axsikentning haqqoniy tarixini yoritish, arxeologiyasini taraqqiy ettirish, nomini jahonga tanitish borasida ulkan ishlar amalga oshira boshlandi. Tashrif chog'i yosh o'g'il-qizlarimizning Axsikent yodgorligiga sinfdan tashqari muntazam ekskursiyalarini uyushtirish, shuningdek, "Yosh qadimshunoslar maktabi"ni tashkil etish to'g'risida bildirgan fikrlari o'ttiz yillik armonlarimning ushali shiga turtki bo'ldi. Men bu xayrli ishlarni davom ettirish, sohani rivojlantirish, to'garak rahbarlariga imkon qadar uslubiy ko'mak berishga, amaliy ishga hamisha shayman", degan edi Alijon Vohidov.

Bugungi kunda ham xuddi shunday to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish lozim. Biroq bu tashkilotchidan katta mehnat talab qiladi. U arxeologiya, tarix, chizmachilik-rassomlik, manbashunoslikdan xabardor bo'lishi, qolaversa, eski o'zbek alifbosini ham yaxshi bilishi lozim.

2019-yil 21-sentabrda "Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi qarorida Xalq ta'limi vazirligiga yirik yodgorliklarga muntazam ekskursiyalar uyushtirish va shu asosda viloyatlarda "Yosh qadimshunoslar maktabi"ni tashkil etish vazifalari yuklatilgani quvonarli. Ilm ahli bilan yelkadosh bo'lib Vatanimizning asl tarixini yoritish ishiga baholi qudrat ko'mak berib kelayotgan akademik A. Asqarov rahbarligidagi "Uchtepa-Buloqmozor" ilmiy-arxeologik ekspeditsiyasi tarkibida tarixchi-manbashunos sifatida faoliyat yuritayotgan fidoyi inson Alijon Vohidov yaqinda bu foni dunyodan ko'z yumdi. Ishonamizki, rahmatli ustozning ishlari munosib shogirdlari tomonidan davom ettiriladi.

Tohirjon QOZOQOV,
NamDU dotsenti, tarix fanlari nomzodi
Baxtiyor RO'ZINOV,
NamDU katta o'qituvchisi,
san'atshunos

“Qo'ng'izcha”ga qanot, rasmga “So'z tuzish” kerak



Har qaysi inson ilk bor yozish, chizish, o'qishni o'qituvchidan o'rganadi. Sergeli tumanidagi 301-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi **Muyassar Matyoqubov**ning o'quvchilari o'quv yilining ilk kunlaridanoq savod chiqarish bilan birga qiziqarli didaktik o'yinlardan bahra olishadi. Pedagog har bir darsga jiddiy tayyorgarlik ko'radi, murakkablik darajasi yuqori bo'lgan mavzularni o'tishda didaktik va qo'shimcha tarqatma materiallardan, AKT va multimedia ilovalaridan unumli foydalanadi.

O'qituvchi bu yil 1-sinfga kelgan jazzi o'g'il-qizlarning qo'lidan tutib, “Alifbe”ni o'rgatayapti. O'quvchilarga harflarni qo'shib o'qish, bo'g'in ajratish, unli va undoshlarni anglatish uchun bir necha tarqatma kartochkalar tayyorlagan. Bu sa'y-harakatlar natijasida “So'z tuzish” usuli yaratilib, kichik yoshdagi bolajonlarning bilimi oshiriladi. Masalan, mavzuga oid bo'g'inlar tarqatmasini sinfdagi doskaga yopishtirib, bolalardan o'z o'rni-ga qo'yishlari talab etiladi. Gohida doskaga o'tilayotgan harflar bilan nomi talaffuz etiladigan buyum va hayvonlar rasmi yopishtirib qo'yiladi. Bu nomlarning “Alifbe”da berilishi ham kartochka sifatida ilib qo'yilib, o'quvchilar so'zlarda nechta harf va bo'g'in borligini aniqlashadi. Yoki bolalar o'rgangan so'zning rasm shakli ko'rsatilib, uni to'g'ri yozish va o'qish talab etiladi. Olaylik, “daraxt” suratini ko'rgan bola darsda o'tilayotgan “Dd” harfini yozadi va so'zni davom ettiradi. Bu usullar bolajonlarning nutqini rivojlantirib, o'qish tezligini oshiradi. Qolaversa, pedagogning

fasllar ketma-ketligini aks ettirishga qaratilgan tarqatma materiallari ham 1-sinf o'quvchilari uchun juda qiziqarli bo'ladi.

“Qo'ng'izcha” usulida esa o'qituvchi tomonidan maxsus yasalgan qo'ng'iz shaklidagi kartonning bir qismida qanot olib tashlangan bo'ladi. Ikkinchi qanotda bo'sh katak shakli bor. Bunda bir qanotda yozilgan songa nechani qo'shsa, darsda o'tilayotgan raqam kelib chiqadi. Ya'ni, bir qanotda 5 soni yozilgan bo'lsa, 10 hosil qilish uchun qaysi sonni qo'shish kerak?

Mehnat inson qadrini belgilaydi, degan hayotiy iborani o'z shioriga aylantirgan pedagog o'ttiz yildirki ta'lim sohasida faoliyat yuritadi. Mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida **Muyassar Matyoqubova** tashakkurnoma hamda O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan “Xalq ta'limi a'lochisi” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Shira BOYMURODOVA,
“Ma'rifat” muxbiri

Sinab ko'ring

Chet tillarini o'qitishdan maqsad o'sha tilda erkin muloqot qilishni o'rgatishdir. Bu jarayon o'quvchilardan o'z ustida muntazam ishlashni talab qiladi. Og'zaki nutq malakalarini o'stirishda turli interaktiv o'yinlardan foydalanish darslarni qiziqarli va sevimli mashg'ulotga aylantiradi. O'quvchilar o'zlarini ancha erkin tutadi. Ammo o'yinlarni qo'llashdan avval o'qituvchi ko'zlangan maqsadni va o'yin qoidalarini aniq tushuntirishi lozim. Quyida nemis tili darslarida foydalanish uchun ba'zi interaktiv o'yinlarni keltirib o'taman.

Nemis tili darslarida interaktiv o'yinlar

1. Ich heiße... (Mening ismim...).

Harflar yozilgan ko'rgazmali qurol-lar tayyorlanadi. O'quvchilar o'z ismini qog'ozga yozadi va ismining har bir harfiga mos keladigan o'z xususiyatlarini tasvirlaydi. Masalan, Sardor:

S- wie stark
A- wie aktiv
R- wie rühig
D- wie duldsam
O- wie ordentlich
R- wie ruhig

Bu orqali o'quvchilarning insonlarga xos xususiyatlarini qay darajada bilishi oydinlashadi.

2. Körperteile (Tana a'zolari).

O'yinni o'qituvchi boshlab beradi, u boshini ko'rsatadi: “Das ist meine Augenbraue” (Bu mening qoshim) deydi. Navbatda turgan o'quvchi to'g'ri javobni, ya'ni qoshni ko'rsatib turib “Das ist mein Hals” (Bu mening tomog'im) deydi. O'yin shu tarzda davom etadi. Bunda o'quvchi aytilgan tana a'zosini ko'rsata turib, boshqa tana a'zosi nomini aytdi. Bu o'yin o'quvchilarning so'z boyligini va xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Wir üben die Zahlen (Sonlarni mashq qilamiz).

Bu juda oddiy bo'lib, o'quvchilar partaga o'tirib yoki doira shaklida turib o'ynashadi. O'qituvchi koptokni bir o'quvchiga ulotiradi va o'zi xohlagan 3 xonali sonni aytadi, masalan, 348 (drei hundert acht und vierzig). Koptokni qabul qilgan o'quvchi oxirgi son, ya'ni 8 soni bilan boshlanadigan 3 xonali sonni aytadi. Agar-da o'quvchi nol bilan tugaydigan son aytasa (420 – vier hundert zwanzig), o'sha o'quvchi o'yindan chiqadi. Shu tariqa davom etadi. Bu o'yin ham xotira va diqqatni oshiradi.

O'yinlarni o'quvchilarning saviyasi yoki yoshiga qarab soddalashtirish yoki qiyinlashtirish mumkin. Mazkur interaktiv o'yinlar orqali diqqatni jamlash, lug'at boyligini oshirish, o'quvchilarni ziyorklikka, tezkorlikka chorlash, asosiysi esa darsni qiziqarli tashkil etish maqsad qilgan.

Nargiza ESONOVA,
Shofirkon tumanidagi
28-maktabning nemis tili fani
o'qituvchisi

Rus tilida talaffuzni to'g'rilaymiz

Rus tilida talaffuzni yaxshilash transkripsiya belgilarini bilish va yod olishni talab etadi. O'quvchilar talaffuzni o'rganishda talaygina qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunga sabab rus tilidagi so'zlarga urg'uni(yodapeneue) to'g'ri qo'yishni bilmaydilar. Masalan, [ɕ] tovushining rus tilidagi talaffuzi o'zbek tilidagi j dan farq qiladi, [z, k] tovushlarining talaffuzi ham ikkala tilda bir xil emas, [ɤ] tovushi ham o'zbek tilida mavjud emas. Bu tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda o'quvchilar biroz qiyinaladi. Keltirilgan tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish uchun o'qituvchi tilning joylashuvini imkon qadar amalda ko'rsatib, bolalarga aniq tushuntirib, takrorlash mashqlari orqali muntazam tekshirib, o'quvchilarning talaffuziga har darsda alohida e'tibor berib borishi zarur.

Shuningdek, ь harfining so'z oxirida talaffuz etilmasligi — жизнь, метель, вост, лиц harf birikmalaridagi в и л so'z o'rtasida o'qilmasligi (эрастмөйөтө, солүөтө kabi) va bir qator boshqa qiyinchiliklarni kuzatish mumkin. Tajribamga tayanib shuni ayta olamanki, o'zbek o'quvchilarning aksariyatiga xos bo'lgan qiyinchilik bu talaffuz qilinmaydigan undoshlar — непронизносимые согласные.

Oddiygina misol: “Яблоко” so'zini ko'pchilik o'quvchilar aynan yozilishicha o'qiydi, lekin so'zning transkripsiya belgisini o'qiy olmaydi. Chunki bu so'z talaffuzini yaxshi bilmaydi:

яблоко[jablak] — olma.

O'quvchiga esa [j] va [ɤ] tovushlari notanish.

Buning uchun dars o'tish jarayonida ushbu belgilar haqida ma'lumot berishimiz kerak. Doskaga yangi so'zlarni nafaqat tarjimai, balki transkripsiya bilan yozish lozim. Bu esa o'quvchining esida qolishiga, o'qishi va talaffuz to'g'riligiga erishishiga yordam beradi.

Rus tilini o'rgatishda uchraydigan grammatik qiyinchiliklarning yana biri so'zlarni bilishiga qaramay ulardan gap hosil qilolmaslikdir. Ya'ni, aksariyat o'quvchilar so'zlarni bir-biriga bog'lashga qiyinaladi. Shuning uchun o'quvchilarga grammatikani o'rgatish juda muhim. Agar o'quvchi grammatik ko'nikmalarni yaxshi egallamagan bo'lsa, o'z fikrini to'g'ri bayon eta olmaydi. Gapirish, yozish va tarjimada qiyinaladi.

O'quvchilar, shuningdek, “rod”larni farqlashi qiyin kechadi. Buni grammatika o'rganishdagi eng katta muammo desa ham bo'ladi. O'zbek tilida aynan so'zlarning “rod”i bo'lmagani uchun uni qo'llashda qiyinaladilar. “Rod” o'qishmalarini yod olish kerak. Biroq qo'shimchalar-

Belgisi	Qay holatda o'qilishi	Namuna
[ɤ]	qisqa a (urg'usiz o)	город [гор'ɤ] — shahar
[jo]	э — harfi urg'uli holatda	эж [j'ɤ] — tipratikan
[ж]	j — jurnal so'zidagi kabi o'qiladi	жужжать [жуж'ат'] — bizillamoq
[и]	e — urg'usiz holatda	метель [м'ит'эл'] — bo'ron
[к]	bo'lib o'qiladi	ключ [кл'уч] — kalit
[г]	g — gramm so'zidagi kabi o'qiladi	гаер [га'ир] — qiyiqchi
[j]	y — yo'l so'zi kabi o'qiladi	юла [jул'] — bizbizak
[ɤ]	a — urg'usiz holatda	книга [кн'иг'] — kitob
[']	b harfining belgisi	ночь [ноч'] — tun
[ɤ'ɤ]	oro-harf birikmasining o'qilishi	этого [эт'ɤ] — buni
[шт]	что — harf birikmasi	что [што] — nima
[ч']	тч — harf birikmasi	лётчик [л'оч'ик] — uchuvchi

Mana shu harflarning talaffuzini bilgan har bir o'quvchi rus tilidagi so'zlarni bemaol to'g'ri o'qish ko'nikmasini egallashi mumkin.

Charos OTANIYOZOVA,
Qo'shko'pir tumanidagi
17-maktab o'qituvchisi

Xorijda ta'lim

Janubiy Koreyada ta'lim:

IQ reytingida dunyoda yetakchilardan bo'lish siri nimada?

Bugungi kunda dunyoda ta'limga e'tibor har qachongidanda yuqori. Boisi, davlat kelajagi uchun yoshlarning ilmiy bo'lishi o'ta muhim masala. Bunga Janubiy Koreya ta'lim tizimini yaqqol misol qilib keltirish mumkin.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi dunyodagi eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. Buni koreys xalqining o'qish va hisoblash qobiliyati, ya'ni matematikaga oid bilimlari yuqoriligidan ham bilish mumkin. Qolaversa, intellektuallik koeffitsiyenti (ing. intelligence quotient, qisqartma nomi IQ), odamning turli test uslublari asosida aniqlanadigan aqliy rivojlanish ko'rsatkichi, bilim saviyasi bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.

Bu davlatda umumiy ta'lim 11 yil va 3 bosqichda tashkil etiladi:

- Boshlang'ich maktab – 6 yil;
- O'rta maktab – 3 yil;
- Yuqori maktab – 2 yil.

Bu bosqichlarning har biri alohida ahamiyatga ega. Masalan, matematika saboqlariga bog'cha davridanoq kuchli e'tibor qaratiladi. Eng kichik yoshidan bolalarga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va boshqalar bilan muloqot qilishning birinchi ko'nikmalari, misol uchun yo'lda yo'qolib qolgudek bo'lsa, qayerga borishi, nima qilishi kerakligi, ota-onasi kimligi, ularning raqamlari, yashash manzillari o'rgatiladi. Shuningdek, yozish, o'qish, hisoblash, musiqa, rasm, chet tili (asosan ingliz tili), xavfsizlik asoslari, jismoniy tarbiya, ochiq havoda o'yinlar va basseyn-

da suzishni o'rganishadi. Bog'chadagi ta'lim aynan shuning uchun ham muhim bo'lib, ota-onalar farzandlari erta rivojlanishi uchun 3 yoshidan bolalar bog'chasiga yuboradi. Bu davrda ular maktabga chiqishga ham tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tugaganidan so'ng bola 5 yoshida boshlang'ich maktabga qabul qilinadi.

Boshlang'ich va o'rta maktabda ta'lim olish majburiy bo'lgani uchun darslar bepul, lekin ovqatlanish va maktab formasi uchun davlat tomonidan maxsus to'lov joriy etilgan. Janubiy Koreya maktablari barchasi o'z formasiga ega va barcha uchun kiyish majburiydir.

Boshlang'ich maktab davri 6 yil. Dars ertalab 9:00 da boshlanib, tartibli saqlash maqsadida 1-2-sinfarga 13:00, 3-4-sinfarga 14:00, 5-6-sinfarga 15:00 da tugaydi. Bu davrda o'quvchilar, ona (koreys) tili, chet tili (asosan ingliz tili), ijtimoiy fanlar, matematika, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlarni o'rganadi.

Jismoniy ta'lim ham barcha fanlar kabi majburiy. Boshlang'ich maktab davrida asosan 9 ta fan, arifmetika va ijtimoiy fanlar o'rgatiladi. Koreys tili ham alohida e'tibor beriladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim tugaganidan so'ng o'quvchilar o'rta maktabga qabul qilinadi.

O'rta maktabning bir nechta turi bo'lib, ular o'quv dasturi va o'quv turiga qarab farq qiladi. Ta'lim davri 3 yil. O'quvchilar asosan koreys tili, matematika, ingliz tili, ijtimoiy fan, tarix, ilm-fan, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya, axloq va ikkinchi chet tili sifatida qo'shimcha chet tili va xitoy yozuvini o'rganadi. Bu asosiy fanlardan tashqari fizika, estetik bilim, kelajakdagi kasb-hunarga yo'naltirilgan tanlovli mavzular ham o'qitiladi.

Yuqori maktab ta'lim tizimi o'rta maktabning ikkinchi bosqichi bo'lib, ma'lum bir mutaxassislikni o'zlashtirishga qaratilgan. U 2 yil davom etadi. Mavzular institut va universitetlarda qo'shimcha o'rganiladi. Bu ta'lim jarayonida turli reyting va qiyin imtihonlar mavjud.

Baholar nisbiy baholash tizimida bo'lgani uchun yuqori maktab o'quvchilari orasida qattiq raqobat bor. Ular odatiy darslar yakunlanganidan so'ng qo'shimcha darslarga boradi yoki kechki payt ham maktabda qolib mustaqil o'qib-o'rganadi. Bu bosqichdagi baholar to'g'ridan-to'g'ri kolleja qabul qilish bilan bog'liq. Yuqori maktab o'quvchilarining asosiy maqsadi nomdor universitetga kirish, chunki ular qanchalik obro'li universitetda o'qisa ishga kirishi osonroq, maoshi va kelajak hayoti shunga yarasha bo'lishini yaxshi anglaydi.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreya va O'zbekiston ta'lim tizimida o'xshashliklar ko'p. Janubiy Koreya ta'lim tizimi-

dagi o'ziga xos jihatlardan biri, bog'cha davridanoq matematika va chet tiliga alohida e'tibor qaratilishidir. Aynan shuning uchun ham koreyslar hisob-kitobga juda usta va kamida xitoy yoki ingliz tilini yaxshi biladi. Shuningdek, Janubiy Koreya davlati eng birinchi bo'lib barcha ta'lim maskanlarini, boshlang'ichdan to oliy ta'lim tizimigacha yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlagan.

Ta'kidlash kerakki, universitetdagi ta'lim jarayonida ham talabalar uchun yaxshi qulayliklar yaratilgan. Masalan, ular fanlarni o'z xohishiga ko'ra tanlaydi. Har bir talabada ID raqami bor va fanlarni tanlash uchun ham alohida bir kun ajratiladi. Talabalar semestr boshida darslarda ishtirok etib ko'rishadi, agar dars yoqmasa qayta tanlash huquqiga ham ega. Buning uchun universitet saytida professor va talabalar muloqot qiladigan alohida joy bo'ladi. Kutubxonalardan nafaqat kitob olish, balki u yerda dam olish, seminarlar ham o'tkazish mumkin. Hattoki, imtihon paytlari talabalar kutubxonada qolsa ham bo'ladi, buning uchun maxsus joylar ajratilgan. Talabalar universitetga istagan kiyimida borishi mumkin. Eng muhimi ularning darsdagi ishtiroki hisoblanadi. Bunday tizim nafaqat talabalarga, o'qituvchi, professorlar uchun ham qulaydir.

Zuhra EGAMBERDIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 2-kurs talabasi

Oliy ta'lim

“Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya”

Huquqshunos butun ongli faoliyati davomida inson bilan, uning muammolari bilan shug'ullanadi. Boshiga tashvish tushgan inson holatini esa tasavvur qilish qiyin emas: u nafaqat o'ziga zarar yetkazgan bir-ikki shaxs, balki qo'yib bersangiz, butun odamzoddan norozi kayfiyatga tushib qolishi mumkin.

Yurist kasbi egalari birortasining tashvishi, “ko'tarib kelgan” muammosi bir-birinikiga o'xshamaydigan, birining xarakteri boshqasida takrorlanmaydigan odamlarga qulog' tutmog'i, ularning ko'ngliga yo'l topmog'i talab etiladi.

Xo'sh, yuristlar bu ko'nikmalarni – odam bilan odamday gaplashish, uni tinglay bilish, muammosini o'z zinkidek qabul qilish, ularni qonuniy hal etishning samarali yo'li va usullarini qachon va qayerda o'zlashtirishi to'g'riroq bo'ladi? Albatta, o'zi ta'lim-tarbiya oladigan oliy o'quv yurtida. Zero, bunday ko'nikma va layoqatlarni o'zlashtirmagan kadrlar sohaning turli tarmoqlarida xizmat qilishi, najot izlab kelgan odamlarda noxush taassurot qoldirishi nafaqat ularning o'zi haqida, balki butun soha, hatto davlat boshqaruvi xususida ham

salbiy fikr paydo bo'lishiga olib keladi.

Bu masalaning dolzarb ahamiyatini chuqur his qilgan Toshkent davlat yuridik universiteti jamoasi, mana ikki yildirki, bo'lg'usi huquqshunos talabalarga “Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya” (dunyoning ilg'or huquq maktablari – “Legal skills and methodology”) moduli asosida ta'lim bermog'ida. Binobarin, turli mobil ko'nikmalar, mantiqiy tafakkur, masalalar yechimiga kreativ yondashuv va tanqidiy fikrlash tamoyillari bilan yo'g'rilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etish zamonning, ish beruvchilarning muhim talablaridandir.

O'tgan asrlardan farqli o'laroq, hozirgi raqamli texnologiyalar va yalpi savodxonlik asri texnologik yutuqlar, ko'p madaniyatli jamiyat, insonning harakatchanligi, global infratru-

zilma, ijtimoiy tarmoq, innovatsiyalar, ijodkorlik va inklyuzivlik davrini boshlab berdi. Xususan, yurtimizda ham malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladigan, pragmatik va sifatli ta'lim berish va obyektiv baholash strategiyalarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratila boshladi.

Bugungi kunga kelib “fikrlash qobiliyati”, “analitik fikr yuritish qobiliyati”, “tanqidiy fikrlash” va boshqalar huquq yo'nalishi talabalar uchun asosiy atributlar ro'yxatiga kiritilgan.

Avstraliyaning Kvinslend universiteti huquq maktabi xulosalariga ko'ra, huquqiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish va belgilashda, avvalo, berilgan huquqiy vaziyat aynan huquqning qaysi tarmog'iga oidligini aniqlab olish talab etiladi. Chunki muammo jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik, fuqarolik-protsessual, ma'muriy, xo'jalik, mehnat huquqi va boshqa huquq sohalari bilan ma'lum bir doirasida bo'ladi va bunda aynan qonunchilikdagi shu yo'nalish bo'yicha harakat qilish lozim.

Taqdirini huquqshunoslik fani sirlarini o'rganish bilan bog'lamoqqa chog'langan bitiruvchilar – bo'lg'usi magistrarga esa, avva-

lo, yuridik tadqiqotlarni to'g'ri va samarali olib borish ko'nikmalari, tegishli huquqiy materiallar bilan ishlay bilish malakasi g'oyat muhimdir. Albatta, yetarli adabiyotlar bilan ta'minlangan huquqshunoslar fundamental tadqiqotlarni ham qiynalmasdan amalga oshirish imkoniga ega. Biroq bunda ilmiy rahbar bilan birga olib borilayotgan tadqiqot uchun hozirda mavjud maxsus metodlar, ya'ni ushbu fan doirasidagi va umumta'lim fanlari metodlari (qiyyosiy tahlil, induksiya, deduksiya, analogiya va b.) asosida tashkil-lashtirilishi yaxshi samara beradi.

Bundan tashqari, huquqshunoslar mustaqil ravishda huquqiy masalalarga tanqidiy yondashuvlarni qo'llashlari kerak. Bunda yakuniy fikr (xulosa) va hukmga yuridik tushunchalar, huquqiy tamoyillar hamda siyosiy qadriyatlar tayanilgan holda, qonunning asosi va ijrosi orqali kelinadi.

Shuningdek, zamonaviy yurist o'zida mavjud fikrlarni baholash, tezkor qarorlar qabul qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi kerak. Bugungi kunda 300 dan ortiq interaktiv metodlar orqali nafaqat yuridik fanlar sohasida, balki boshqa fan tarmoqlari va-

killari ham o'z faoliyatida ushbu metodlardan foydalanib, kerakli natijalarga erishmog'ida. Demak, bugungi davrning asosiy talabi hisoblangan – qisqa vaqtda aniq va to'g'ri qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini, buning uchun esa, o'z navbatida, inson aqliy imkoniyatlari darajasi – IQ ni ham muntazam rivojlantirib borish lozim. Bugun ko'p holatlarda ish beruvchilar ishga kirmoqchi bo'lgan mutaxassislardan diplom va nazarat ko'nikmasi, malakalarni talab qilishdan tashqari, qo'shimcha ravishda bo'lajak xodimning IQ darajasini tekshirish bo'yicha testlar tashkil etayotgani bejiz emas, albatta.

Har bir fan yoki sohaning o'z postulatlarini, tamoyillari, metodologiyasi va yangicha rivojlanayotgan paradigmatlari bo'ladi. TDYUda “Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya” fanidan talabalarga ta'lim berayotgan mutaxassislar ham bu g'oyat muhim fanning ta'sirchanligi va samaradorligini oshirish yo'li-da muntazam izlanib, o'z ustida ishlamoqdalar.

Shohjahon TOSHPOLATOV,
TDYU “Umumta'lim
fanlari va madaniyat”
kafedrasini o'qituvchisi

Prezidentimiz farmoniga ko'ra tuman(shahar) kesimida tuzilgan reytingda birinchi o'rinni egallagan umumta'lim muassasalari direktorlari mahalliy budjet mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10 baravari miqdorida bir martalik rag'batlantiriladi.

Ta'lim sifati nazoratda

Maktablar reytingi e'lon qilindi

Davlatimiz rahbari topshirig'iga binoan Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan maktablar milliy reytingi joriy etildi va milliy reyting natijalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman(shahar) hokimlari, ularning ta'lim-tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari hamda maktab rahbarlari va pedagogik jamoa faoliyatiga baho berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Maktablar qamrovi 100 foiz bo'lgan ta-
qiyot natijalari. Topshiriq ijrosi yuzasidan 14 ta
hududdagi 207 ta tuman(shahar)larda joylash-
gan 9 622 ta maktab faoliyati tahlil qilindi. Tahlil
natijalari asosida 2020-yil yakunlari bo'yicha
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va
Toshkent shahri, shuningdek, tuman(shahar)
kesimida umumta'lim muassasalarining reytingi
tayyorlandi. Reyting ko'rsatkichlarini shakllan-

tirishda tegishli davlat organlarining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi.

Reyting mezonlarini belgilashda xalqaro tajriba (Finlandiya, AQSH, Janubiy Koreya, Rossiya) hamda mahalliy ustuvor masalalarga alohida e'tibor berilib, 4 ta vo'nalishda 8 ta indikator belgilandi:

– o'quvchilarning hayotga tayyorgarlik darajasi (bilim darajasi, oliygohlarga kirish ko'rsatkichi, xorijiy tilni bilish darajasi va bandlik);





– pedagoglarning sifat tarkibi va salohiyati(oliy va birinchi toifaga ega pedagoglar ulushi);

– maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy va o'quv-tarbiyaviy muhit

(5 ta tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlar va o'quvchilar orasida ijnovatchilik):

– mahalliy hokimliklarning maktablar rivoji uchun qoʻshgan hissasi (mahalliy budietning ort-

uchun qoshimchi mablag'lar (mablag'lar) sarf etilgan mablag'larini hisobidan maktab ta'limi rivoji uchun sarflangan mablag'lar).



O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash hamda maktab direktorlari va o'qituvchilari bilan TALIS xalqaro tadqiqotlari (so'rovnomna) ni o'tkazish orqali maktablardagi o'qitish muhiti va ta'lim berish samaradorligini baholash yangilangan reyting indikatorlarining eng asosiy mezonlari hisoblanadi.

Maktab o'qituvchilari jamoasi bilan o'tkazilgan so'rovnomada jami 58 958 nafar pedagog xodim

qatnashdi. Ijtimoiy so'rovnomalar TALIS xalqaro tadqiqotlari savollari asosida o'tkazildi. Bu o'tkazilgan so'rovnomalar o'qituvchining professional faoliyatini tekshirishga imkoniyat berdi. So'rovnomada davomida o'qituvchilar o'z kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyati, shaxsiy fikr-mulohazalari, maktab sharoiti haqida ma'lumotlarni bayon qilishgan.

Shuningdek, maktab o'quvchilari bilan ijtimoiy

so'rovnomalar o'tkazildi, bunda jami 39 874 nafar yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

Reyting natijalari asosida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda:

• Reytingda past natija ko'rsatgan maktablar va hududlar uchun maxsus uslubiy yordam ko'rsatish, ularda ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqish va har chorakda monitoringini olib borish;

- Reytingda yuqori natija ko'rsatgan maktablar tajribasini ommalashtirish;

• Reyting natijalaridan kelib chiqib, direktor va ularning o'rinbosarlari, o'qituvchilar, hokimlar va ularning ta'lim bo'yicha maslahatchilari faolivatiga baho berish;

- Rahbar xodimlar, pedago g va o'qituvchilarning faoliyati samaradorligini hisobga olib, moddiy rag'batlantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Prezidentimiz farmoniga ko'ra tuman(shahar) kesimida tuzilgan reytingda birinchi o'rinni egallagan umumta'lim muassasalari direktorlari mahalliy budjet mablag'larini hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10 baravari miqdorida bir martalik rag'batlantiriladi.

Xalq ta'limi bo'limi mudirlari va metodistlariga, umumta'lim muassasalari direktorlariga hamda tuman(shahar) kesimida tuzilgan reytingda dastlabki beshta o'rinni egallagan umumta'lim muassasalarining 2 nafar o'qituvchilariga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi

hisobidan sanatoriylarda dam olish uchun bepul
yoʻllanmalar beriladi.

Reyting natijalarini tahlil qilish asosida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, muassasalarda ta'lim sifatini ko'tarish, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish, umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha barcha imkoniyatlar ishga solinadi.

Akbar ALIMOV,
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat
inspeksiyasi bo'lim boshlig'i

Taklif

Yangicha fikrlovchi pedagoglar zarur!

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da OTM professor-o'qituvchilariga yangicha fikrlash, yangicha dunyoqarash va yangicha mehnat qilish bo'yicha ulkan vazifalar qo'yilganligi barchamizga milal'm. Bu vazifalarni bajarishda hukumatimiz tomonidan bir nechta qaror qabul qilinib, oliy ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda va bu jarayon uzluksiz davom ettirilmoqda. Xususan, oliy ta'limni korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilyapti.

Bular barchasi albatta, juda quvonarli. Lekin, qachonki, oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar yangicha fikrlashga o'tmas ekan, tizimga kreativ fikrlovchi yoshlarni jalb qilish ishlarini jadallashtirmas ekanmiz, Prezidentimiz tomonidan oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish qiyin qo'lib qoladi.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning tashkiliy masalalari bo'yicha quyidagi fikr-mulohazalar va takliflarimizni bildiramiz:

- Ta'lim muassasalarida 2-kurs talabalaridan ochiq va xolisona tanlov asosida biror fan yoki san'at sohasiga iqtidori bor, kreativ fikrlovchi va novatorlik qobiliyatiga ega bo'lgan talabalarni ajratib olish lozim.

- Tanlab olingan iqtidorli talabalarga alohida dastur asosida o'z yo'nalishi va iqtidoriga mos holda maxsus fanlarni o'qitish kerak.

- Mutaxassislik fanlaridan amaliy darslarni hududlardagi ishlab chiqarish korxonalari, analitik sinov laboratoriyalari, IT park va klasterlarda o'tashlarini tashkil etish zarur.

- Iqtidorli talabalarining malakaviy amaliyotlarini Respublikamizning gigant sanoat korxonalari va nufuzli ilmiy markazlarda o'tashlarini ta'minlash shart.

- Xorijiy nufuzli OTMlar bilan hamkorlik aloqalarini muvofiqlashtirish lozim.

Albatta, bu takliflar ta'lim sohasidagi tashkiliy masalalar hisoblanadi. Ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqishda tashkiliy masalalarning o'zi yetarli emas. Moddiy-texnik baza maqtanarli bo'lsa-yu, unga yarasha qoyillatib dars o'tadigan ustozlar bo'lmasa, maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu sababli biz yoshlarni zamon talabi darajasida o'qitishga intilishimiz zarur. Bugungi kun yoshlari – nomiga auditoriyaga kirib, o'zining avtobiografiyasini gapirib beradigan ustozlarni emas, zamon talabi asosida rivojlangan davlatlar o'quv darsliklari va uslublari bilan yo'g'rilgan noan'anaviy ma'ruza darslari, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvni ta'minlovchi amaliy darslarni hamda eng zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida o'tkaziladigan tajriba darslarini bizdan kutmoqdalar. Demak, Renessans davriga poydevor qo'yishimiz uchun, avvalambor, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarimiz eskicha fikrlash, dunyoqarash va dars o'tish usullarini yig'ishtirib, bugundan

boshlab, yangicha fikrlashi, o'zidagi tashabbuskorlik, mehnatkashlik va ma'natni qayta tiklashi, ijobiy sifatlarini rivojlantirishi, yangi qobiliyatlarini kashf etishi zarur. Buyuk allomalardan biri "Har bir insonda qobiliyat mavjud, faqat uni rivojlantirsa va yuzaga chiqara bilsa bo'ldi" degan ekan. Shunday ekan, oliy ta'limda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar "boqimandalik", "dangasalik", "bo'laveradi" kabi salbiy xislatlarni o'zimizdan yiroqlashtirib, Prezidentimizning ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlariga "labbay" deb javob berishlari, yuraklarining tub-tubida mudrab yotgan yangi g'oya, yangi ishlanma va novatorlik qobiliyatlarini uyg'otib, uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yishda o'z hissamizni qo'shaylik.

Sadrididdin ESHQORAYEV,
Termiz davlat universiteti "fizikaviy va kolloid kimyo" kafedrasini mudiri,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
Hayit TO'RAYEV,
kimyo fakulteti dekani,
kimyo fanlari doktori, professor
Bekzod BOBOMURODOV,
"Fizikaviy va kolloid kimyo"
kafedrasini dotsenti,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Muallim alpinistga o'xshaydi...

Chimyon tog'ining eng baland cho'qqisi haqida eshitib, biz ham o'sha yerga borishni niyat qildik. Balki tayanch doktorantura bosqichida o'qiyotganligim va turli qiyinchiliklarga uchratayotganligim uchunmi, safar menga boshqacha ta'sir qildi va taassurotlarimni bo'lishish qaroriga keldim. Bildimki, havas – san'at, amal – jasorat ekan! Yuqoriga odimlaganimiz sari qiyinchiliklarning darajoti ortib borar, harakatimiz esa shunga yarasha sustlashardi.



Tepaga intilganing sari kichik qadamlar ham ahamiyatli bo'lar va u yerda ham tekis yo'llar bo'lib, ular uzun, qiya, notekis, juda xavfli bo'larkan. Ayni shu holatni real hayotda ro'y berayotgan voqealikka o'xshatdim. Kishi yuqoriga intilgani sari har qadamda tekis va notekis, xavfli va xavfsiz qo'moqlarga ro'baro' kelar, ba'zan ularni aylanib, ba'zan qoq o'rtasidan o'tishga majbur bo'larkan. Bilasizmi, bu ulkan va bahaybat tog'lar kishi sabrini sinarkan. Siz yuqoriga

alpinistlardek meni ilm yo'lining qiyinchiliklari, mashaqqatlaridan ogohlantirishadi. Qaysi yo'ldan yursam manzili oxirida meni kutajak sir-sinoatlardan boxabar qilishadi. Alpinist tik qoyalar, o'nqir-cho'nqir va shag'alli yo'llarda qanday qadam qo'yishni o'rgatsa, alpinist-muallim ilmiy hayotda ham tik qoyalardek murakkab vaziyatlarning bo'lishini, shunday holatlarda sergaklikni qo'ldan boy bermay, juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishimiz, ba'zan sukut saqlashimiz, sabr-toqatli bo'lishimiz kerakligini uqtirishadi. Alpinist olib borajak yo'llar kishi tani va vujudini jismoniy chiniqtirsa, alpinist-muallim berajak ta'lim kishi aqlini, taffakkurini yuksaltirajak. Muallim – ruhshunos! Har qanday vaziyatda ham kayfiyatni tushirmay maqsad sari olg'a intilishga undab, "Bu ish qo'lingizdan keladi, uddalay olasiz" deb shogird ruhiyatini ko'tarib, o'ziga bo'lgan ishonchi ortishiga sababchilardan bo'ladi...

Aslida muallim haqida to'xtalгим va ta'riflaganlarimning boisi yuqoridagi holat va kechinmalarni o'z tanimdan o'tkazganimdir. Cho'qqida turib tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'larkanman, ajib hislar qurshovida qoldim. Yo'l qiyinchiliklari toqatimni toq qilib, o'z-o'zimga "bo'ldi bas, eplolmayman" deganimda, ichkaridan ustozlarimning menga shu paytgacha har sohada bildirgan ishonchlari va "qo'lingizdan

keladi, eplay olasiz" deganlari yuragimga quvvat bo'lib, o'sha cho'qqiga chiqa oldim. Dovonlar osha ne-ne mashaqqatlar bilan cho'qqiga chiqqanimda bildimki, yerning biz turgan bu nuqtasidan tabiat go'zalliklarini kuzatish juda boshqacha bo'larkan. Tepadagi go'zallikning ta'rif yo'q! Hech bir texnika va zamonaviy uskunalar u yerdagi go'zallikni boricha, asl holicha ko'rsatishga qodir emas... Ammo kimdir faqat tik qoyalar va toshlar ko'rsa, kimdir ular bag'ridagi go'zalliklarni ko'radi. Qarash va munosabat har kimning tafakkur va taxayyul dunyosiga bog'liq. Tundan tonggacha, namozshomda quyosh botishini, erta saharda quyosh chiqishini o'sha cho'qqida turib kuzatarkanmiz, tunda kunduz ko'rgan oppoq bulutlarni qayiq qilib yulduzlar aro taxayyul dunyosiga safar qilib, faqat "muallim kim o'zi?" savoli atrofida suzdim. Alpinist ko'rsatgan so'qmoqlardan yurib, yo'l qiyinchiliklariga bardosh berganim uchun ham tabiatning betakror manzarasini ko'rish baxtiga musharraf bo'ldim, demak muallimim ko'rsatajak yo'llardan yursam, ilmiy dovonlarning mashaqqatlari bilan birga tengsiz go'zalliklarini ko'rish, his qilish va ayni o'sha jarayonning ichida bo'lish baxtiga musharraf bo'larkanman, deb mushohada qila boshladim. Yillar oldin atrofimdagilar "shuncha o'qib, kelib-kelib muallim bo'lasanmi?" deb aytganida,

ko'nglim o'ksirdi. Ammo bugun hech ikkilanmay aytalaman ki, "Men kelib-kelib o'qituvchi, muallim, ustoz bo'laman". Atrofingizga qarang, har bir sohaning ma'lum bir cho'qqisida turgan insonlar bor. Ular o'sha cho'qqilarga osmondan tushmagan... Siz kim bo'lishingizdan, hozir bor yoki kelajakda bo'lajak yangi bir soha yoki hunarni tanlashingizdan qat'i nazar, o'sha sohaning erishib bo'ladigan cho'qqilariga chiqmoqchi bo'lsangiz, uni ishing ko'zini biladigan, o'z sohasini mukammal egallagan shaxslardan o'rganasiz va o'sha inson sizning ustozingiz va muallimingiz bo'ladi. Siz o'zingiz ham kim uchun shogirdsiz, kim uchun esa ustoz! Menimcha, bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqat!

Moziyga qarasaq muallimdek sharaflari kasb egalari borligi uchun ham qadimdan mavjud hunar va kasblar hozirgi kungacha yashab kelmoqda. Shuning uchun muallim kasbini "kasblar yuragi" desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Yurak – qonni to'qima va a'zolariga yetkazish vazifasini bajarganidek, muallim ham jamiyat uchun, millatning yashamog'i uchun kerakli kadrlar va soha mutaxassislarini yetkazishdek sharaflari va o'ta mas'uliyatli vazifalarni bajaradi. Baxtimizga ustozlaridan meros qolgan kasb, hunar va soha sir-u asrorlarini o'rgatib kelayotgan va vorisiylilni ta'minlayotgan ustozlarimiz bor bo'lsin!

Kamola JUMAYEVA,
Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

Global muammo

Atirgul ...

Bugungi zamonaviy dunyoda bir necha yillardan buyon jamiyatning yuqori tabaqalariga mansub "manyaklar" tomonidan global miqyosda insonlarning tabiiy ko'payishini tartibga solish bahonasi bilan, aholi genotsidi amalga oshirib kelinmoqda va ongi manipulyatsiya qilingan olomon bu oldindan rejalashtirilgan maxsus operatsiya ekanligini ko'pincha anglay olmaydi, degan qarashlar mavjud.

Taniqli ingliz ruhoniysi, iqtisodchi Tomas Robert Maltus (1766–1834) 1798-yili o'zining "Aholi qonuniyati haqida ocherk" nomli asarini chop ettirdi. Bu kitob o'sha davr ilmiy jamoatchiligi tomonidan ijobiy kutib olinmadi.

Maltus mazkur asari orqali abadiy davom etadigan tabiiy qonuniyatlarga ko'ra iste'mol uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlar arifmetik proporsiya asosida, aholi soni esa geometrik proporsiya asosida (har yigirma besh yilda ikki baravar) ko'payib borishini ta'kidlaydi. T.Maltus iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning mavjud ehtiyojga nisbatan past ko'rsatkichi qashshoqlik va halokatli ocharchilikka olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning farazicha, insoniyat oldida ikki yo'l bor: yo insoniyat barcha jonzotlarga xos bo'lgan avlodini davom ettirish instinktiga qarshi borib, o'zini o'zi cheklashi lozim yoki aholi soni keskin ortishining halokatli oqibatlarini bo'lgan qashshoqlik, epidemiyalar, kasalliklar, urushlar va ocharchilik sababli o'limning ko'payishi aholi o'sishi-ning cheklanishiga olib keladi.

Mavjud muammoning yechimi sifatida T.Maltus davlat tomonidan tug'ruqqa cheklov o'rnatilishi lozimligini taklif etadi.

XX asrga kelib yer yuzi aholisining soni bir milliarddan oshdi. Pul va hokimiyat qo'lida bo'lgan g'arb imperialistlari shu davrdan boshlab aholi sonini "tartibga solish" maqsadida amaliy harakatlarni boshlab yuborishdi. Aynan shu asrda ikki marta insoniyatga qarshi jinoyat amalga oshirildi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, Birinchi jahon urushida 10 million odam halok bo'ldi, 20 milliondan ortig'i mayib-majruh qilindi. Ikkinchi jahon urushida esa 65 million kishi qirib tashlandi. Urishayotgan tomonlar qanday balandparvoz go'oyani targ'ib qilishdan qat'i nazar, ularning rahbarlari ruhiy holatida muammosi bo'lgan savdoyi(manyak)-lardir va insoniyatga qarshi qaratilgan har qanday go'oyalar tarix axtat chelagidan abadiy o'rin egallaydi, u xoh kommunizm, xoh fashizm bo'lsin.

Taniqli adib, Nobel mukofoti sovrindori, jahon urushlari guvohi bo'lgan Ernest Xemingueyning quyida keltirilgan so'zlari XX asr Yevropa siyosiy elitasining asl yuzini fosh etadi:

"...urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg'in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko'proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o'ylamaydigan to'ng'izlardir. Men urushda boylik o'ttirganlar, urush olovini yoqanlar urushning birinchi kunlaridagi mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmogi zarur, deb hisoblayman".

1945-yilga kelib "aholi sonini tartibga solish" bo'yicha global eksperiment niho-

yasiga yetdi. Urush bu maqsadga erishishning eng samarali usuli, lekin bu usulning hukmron elitaga maqbul bo'lmaydigan tomoni shundaki, bunda, albatta, qahramonlar bilan bir qatorda "yovuz kuchlar" bo'lishi shartidir. Tabiiyki, hech kimga "yovuz kuch" rolini o'ynash ma'qul kelmadi. Endi yanada samarali va xavfsizroq yo'llar qidirila boshlandi...

Qadimgi Misrda fir'avnlariga ilohiy kishilar sifatida qaralgan. O'lganidan keyin jasadi mo'riyolanib, saqlab qo'yilgan. Fir'avn va uning oila a'zolari xonadoniga mansub kishilarni qatl etishga to'g'ri kelib qolsa, ularning qonini to'kmaslik va jasadiga zarar yetmasligi shart bo'lgan. Shu sababli o'limga mahkum etilgan sulola vakili tor xonaga qamali, ustidan atirgul yuproqlari to'kilgan. Atirgul yuproqlaridan ajraladigan efir va havo yetishmasligi mahkumning sekin-astalik bilan o'lishiga sabab bo'lgan.

Qatl qanday shaklda amalga oshirilishidan qat'i nazar, xoh boshi tanidan judo qilinsin yoki atirgul iforiga mast bo'lib jon bersin, baribir mohiyat o'zgarmaydi. O'loq yaratgan mavjudotlarning gulto'ji bo'lgan inson unga berilgan eng bebaho ne'mat – hayotidan judo qilinadi.

O'tgan asr o'rtalariga kelib insoniyatning tabiiy instinkti uning o'ziga qarshi yo'naltirilgan boshlandi. Insoniyatning ko'payishiga sabab bo'ladigan jinsiy mayl, uni yo'q qilishga ham qodir eng xavfli psixologik quroldir. XX asrning 50-yillariga kelib san'at va sport orqali fahsh keng targ'ib qilina boshlandi. Asrlar davomida shakllantirilgan axloq me'yorlari tanazzulga uchrash boshlashi bilan birga fahsh targ'iboti sanoat darajasida rivojlantirildi. Filmlar, reklama plakatlari, gazetalarda ilgari axloqsizlik belgisi sifatida qaralgan, yarim yalang'och ayollar va zino ochiq-oydin namoyish etila boshlandi. Insoniyatning e'tibori, ong-u shuuri fahsh tomon yo'naltirilib, atayin shahvoniy hirsilar qo'zg'atildi.

Bugungi kunda jahon porno industriyasi barchani faqat va faqat shahvoniy hislar bilan band bo'lishga targ'ib qilib, tafakkur qilishdan ozod bo'lishga undamoqda.

Rossiya madaniyatshunoslik institutining katta ilmiy hamkori, akademik Leonid Kitayev – Smiyk o'z chiqishlarida zamonaviy g'arb sivilizatsiyasiga tahdid solayotgan eng katta xavf bu – yarim yalang'och ayollar ekanligini ta'kidlaydi. Gap shundaki, ayollarning kelishgan qomati, ko'krak va son qismlarining ochiq namoyon etilishi qarama-qarshi jins vakillarida kuchli qo'zg'alishni uyg'otadi. Shahrda yashaydigan zamonaviy erkak har kuni 100 martadan oshiq bunaqa holatlar bilan to'qnashadi. Natijada qanoatlanilmagan jinsiy mayl ong ostiga yo'naltiriladi, inson bu qo'zg'alishni sezmasligi ham mumkin, lekin androgenlar, ya'ni jinsiy gormonlar qonga singadi. Inson salomatli-

gi uchun xavfli bo'lgan o'rtacha miqdorda androgenlarning doimiy ravishda qonga singib borishi erkaklarda prostata bezi adenomasi va saratoniga sabab bo'ladi.

Keyingi o'nyilliklar davomida prostata bezi adenomasi va saratoni kasalligi g'arb sivilizatsiyasi erkaklariga vabo misoli xavf solmoqda. Bizning davrimizga kelib Yevropa mamlakatlarida istiqomat qiladigan erkaklarning 50 foizi ushbu kasallikdan aziyat chekmoqda. Ushbu holat o'lim va impotensiya – jinsiy zaiflik ko'payib ketishiga sabab bo'lyapti.

Inson sayyorada mavjud boshqa biologik organizmlardan farqli ravishda jismdan tashqari ruhiy olamga ham ega. Bugungi kunga kelib rivojlangan G'arb inson ma'naviyati va axloq masalasidan tashqari barcha sohalarida, sanoat, tibbiyot, elektronika, harbiy sohada olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin negadir ko'pgina G'arb davlatlarida demografik holat halokatli darajaga kelib qolgan. O'lim holati tug'ilishdan ko'ra anchagina ko'proq ko'rsatkichlarni qayd etmoqda.

Yevropadagi demografik holatni Rossiya misolida tahlil qiladigan bo'lsak, masalaning naqadar jiddiy ekanligini his qilish mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, II jahon urushdan oldinroq, 1941-yilda Rossiya aholisi 110 milliondan ortiqroqni tashkil qilgan. Urushdagi qirg'inlar, ocharchiliklarni yelkasida ko'targan rus xalqi nufusining yana 110 millionga yetishi uchun 15 yil kerak bo'ldi. 1955-yilga kelibgina Rossiya aholisi 110 millionga yetdi. Sovet Ittifoqi tarqalganidan keyin 1992-yilda Rossiya aholisi 148 milliondan oshiqroq bo'lgan, 2021-yilning yanvar oyiga kelib esa bu ko'rsatkich 146 millionni tashkil qilmoqda. Ya'ni, o'tgan o'ttiz yil davomida Rossiya biror-bir yirik urush harakatlarini boshidan o'tkazgani yo'q, lekin o'lim holatlarining o'sishi tug'ilishga qaraganda bir necha barobar yuqoriligini kuzatish mumkin. 2100-yilga borib Rossiya aholisining yuz million atrofida qolishi tahlilchilar tomonidan bashorat qilinmoqda. Qolgan Yevropa davlatlari kabi Rossiya ham demografik halokat yoqasida turibdi.

Bu holat go'yoki taraqqiyotning tabiiy jarayonidek tuyulishi, ya'ni evolyutsion jarayonlar natijasida rivojlangan inson o'zi uchun yashashni xohlashi, o'z qadrini bilishi, o'zi haqida o'ylashi, o'zini sevisi natijasi deyishimiz mumkin. Aslida esa shunday fikrdagi insonlarning o'zi insoniyat ongini manipulyatsiya qilishga qaratilgan maxsus operatsiyaning qurbonlaridir.

"Postdemokratik jamiyat"larda moda, san'at va sport insonlar ongini nazorat qilish, ularga ta'sir ko'rsatish quroliga aylantirilgan. Bularning barchasi insondagi axloq me'yorlari va uyat hissinin yo'qotishga qaratilgan.

Tasavvur qilib ko'ring, badiiy gimnastika yoki baletni o'rgatish bahonasi bilan yosh qizaloqning gavdasini turli xil usullarda qo'yish, jamoatchilik ko'z ongida tanasining eng yashirin qismlarini zo'rg'a yopib turgan ichkiyimgargacha namoyish qildirishni sport yoki san'at deb atash mumkinmi? Axir bu bolalar striptizi, axloqsizlik, yovvoyilik-ku!!!

Televideniye orqali namoyish etilayotgan seriallar, tok-shoular, reklamalar, hatto bolalar uchun namoyish etilayotgan kinofilmlar va multafilmlar ham fahsh sahnalari bilan to'la. Oddiygina multafilmlardagi qarama-qarshi jins vakillariga

nisbatan maylning oshkora namoyishi, o'pishish sahnalarining bolalar dunyogarashi yoki ma'naviy yuksalishida biror foydasi bormi? Bu shunchaki ongi shakllanib ulgurmag bolalar va o'smirlarga nisbatan xiyonatdir. Bu insondagi hirsilarni qo'zg'ab, fikr-u xayolini band qilib, tafakkur qilish qobiliyatini o'chirib qo'yishdir.

Yoshligidan bunday "san'at" namunalari ko'rib o'sgan o'spirinlar organizmida kechayotgan vayron qiluvchi jarayonlarni o'zi anglamaydi. Qo'zg'algan kuchli jinsiy maylni qondirishning iloji bo'limgach, bu ajralib chiqqan kanserogenlarning qonga singishi natijasida jinsiy majruh, impotentlarga aylanib qolishadi.

Faol jinsiy hayot bilan band bo'lgan erkaklarda ham bu jarayon yuz beraveradi. Chunki jismining imkoniyati cheklangan, lekin undagi hirs, nafs cheklanmagan. Sun'iy ravishda qo'zg'atilgan va chegarasiz shahvoniy mayllar inson ong-u shuuri darabdar ruhlar kabi tentirab jismini majruh qilaveradi. Oqibatda jamiyatda tabiiy ehtiyojlarini qondira olmaydigan majruh "erkak"lar qatlami shakllanib qoladi.

Yaqin o'tmishda ham o'zlarini "jinsiy ozchilik" vakillari deb ataydiganlarga nisbatan nafrat bilan qaralgan. Bugungi kunda esa ular go'yoki o'z manfaatlarini himoyasi uchun LGBT jamiyatlarini tuzishmoqda. Ongi manipulyatsiya qilinib, zombilashtirilgan olomon esa aksariyat hollarda insoniyatga qarshi qaratilgan bunday jinoyatga nisbatan salbiy munosabat bildirmaydi. Bu aslida savdoyi odamxo'rlar huquqini himoya qilish uchun jamiyatlar tuzishday gap, hatto undanda xavfli. Chunki savdoyilar umri davomida sanoqli insonlar hayotiga daxl qila olishi mumkin. LGBT esa butun insoniyat nasliga, insonlarning tabiiy ko'payishiga daxl qiladi.

Uzoq davr sovet zindonda saqlangan O'rta Osiyo davlatlari Yevropa mamlakatlari 100 yillar orqada qolib ketishdi. Mustaqillikka erishgach Yevropadan namuna olishga shiddatli harakat boshlashdi. Afuslar bo'lsinki, Yevropani qalalayotgan "madaniyat"ni ham taraqqiyot belgisi sifatida tushunib, hayosizlik, fahsh va yovvoyilikni madaniyat sifatida qabul qilishmoqda. O'zlarida mavjud bo'lgan ming yillar davomida shakllanib, sayqallanib kelgan axloqiy qadriyatlarni esa qoloqlik belgisi sifatida qarashmoqda. Yarimyalang'ochlikni madaniyat deb qabul qilishga o'rgatilgan, tafakkur qilishdan benasib biomassaning sal yopiqroq kiyingan ayollarga nisbatan taajjub va shubha bilan qarashi madaniy holatimizning ham kulguli, ham o'ta ayanchli bir ahvolda ekanidan dalolatdir.

Millatning "aynishi" undagi madaniy elitaning buzilishidan boshlanadi. Vazifasi xalq orasida madaniyat, ma'rifati targ'ib qilishdan iborat bo'lgan ayrim arboblarning "ommaviy madaniyat" o'chog'i hisoblangan diskotekalarni targ'ib qilishi, bu axloqsizlikni zamonaviylik bilan bog'lashini qanday tushunish kerak?

Nima bo'lganda ham go'zal axloq va dini bilan aziz qilingan millat vakillari ekanligimizni unutmaylik. Agar shu xalq, qorako'z, qoraqosh shu millat bo'lmasa she'r'larda "Vatan" deb mad-dohlik qilingan 448.9 kvadrat kilometrl maydonda mol-qo'y boqildi nima-yu, qamishzor cho'l bo'lib ketdi nima? Milliyligimizni, dinimizni, o'zligimizni saqlab qolaylik!!!

Elyor QAYUMOV

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 6-varianti

ONA TILI

1. Quyidagi so'zlardan qaysi birining talaffuzida tovush ortishi kuzatilmaydi?

- A) material B) go'sht
C) biologiya D) teatr

2. Qaysi gapda otlashgan sifat berilgan?

- A) Sinfimizda a'lochi o'quvchilar soni tobora ortib bormoqda.
B) Keksa kishilar katta hayotiy tajribaga ega bo'ladi-lar.
C) Dono, aqllilar hech qachon yo'ldan adashmaydi.
D) Dangasa odamning bahonasi ko'p.

3. Keyin so'zi qaysi gapda mustaqil so'z vazifasida kelgan?

- A) Avval o'yla, keyin so'yla.
B) Bu kitob qo'lga tushgandan keyin bosh ko'tar-may mutolaaga tushdi.
C) Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Shiroq o'tov-dan chiqdi.
D) Bu chinorlar ming yildan keyin ham yashaydi.

4. Hovlida allakimning qorasi ko'rindi.

Ushbu gapda qatanashgan olmosh qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) so'roq olmoshi
B) tuzilishiga ko'ra sodda yasama olmosh
C) belgilash olmoshi
D) tuzilishiga ko'ra qo'shma olmosh

5. Qaysi qatorda bo'lsa so'zi yordamida bog'lan-gan qo'shma gap berilgan?

- A) Kimda aql oz bo'lsa, undagi shuhratparastlik shunchalik kuchayar.
B) Agar qiz bo'lsang, otingni Kimsanoy qo'yaman, agar o'g'il bo'lsang, Kimsanboy qo'yaman.
C) Aql ko'pga yetkazadi, hunar bo'lsa insonni ko'kka ko'taradi.
D) Olim bo'lsang, olam seniki.

6. Ehtimol, istexkom, istehzo, mehnat, ixcham, ixlos, ixtiro, ixtiyoriy, hirurg, arxiv.

Ushbu so'zlardan nechitasi imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?

- A) 5 tasi B) 9 tasi C) 4 tasi D) 8 tasi

7. Qaysi nutq uslubida bo'yoqdor so'z va qo'shim-chalar, iboralar, maqol va matallar qatnashmaydi, ammo murakkab jumlar, kirish va kiritmali quril-malar ko'p qo'llaniladi?

- A) badiiy uslub B) ilmiy uslub C) publitsistik uslub
D) rasmiy uslub

8. Seni unutolmas yuragim aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo.

Ushbu gapdagi ostiga chizilgan so'z qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) undalma B) ega C) kiritma D) kesim

9. Azob so'zining sinonimlaridan qaysi biri “ruhiy azob” ma'nosida qo'llaniladi?

- A) sitam B) jabr C) uqubat D) iztirob

10. Quyidagi jumlada qaysi qo'shimcha bir mar-ta ishlatilsa, uslubiy jihatdan to'g'ri bo'ladi?

O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakultetining

1-bosqich talabasi Muhayyo Usmonovanning amaliyot ishlari uchun tutgan daftari.

- A) -i (III shaxs egalik shakli)
B) -gan (sifatdosh shakli)
C) -ning (qaratqich kelishigi)
D) -si (egalik shakli)

11. Asli qiyofangni ko'rsatishdan qo'rqishig, demak, o'zingdan nafratlanishingni bildiradi.

Ushbu gapda kiritma vazifasini bajargan so'z qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

- A) modal so'z
B) fe'l
C) bog'lovchi
D) yuklama

12. Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,

Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.

Yurt bu kun ohuday xo'p ishvakordir,

Sir kabi seravjdin, Pomirday poydor.

(A. Oripov)

Ushbu she'riy matnda nutqning boyligini oshirish-ga xizmat qilgan asosiy vosita nima?

- A) sinonimlar B) olmoshlar
C) takror D) o'xshatish

13. Qaysi gapda uslubiy g'alizlik yo'q?

A) Do'stlik do'sti uchun o'z manfaatlarini qo'lga kiritish, fidokor bo'lish hamda xudbinlik illatidan ozod bo'lishdir.

B) Dushmaningdan yashirganingni do'stingga ayt-ma, zero do'stlikning adabiyiliga kafillik yo'q.

C) Do'stlik ishonchsizlik boshlangan joyda o'z ibti-dosiga yetadi.

D) Aqli ko'pni dov olmas, Do'sti ko'pni yov olmas.

14. Qaysi qatorda aniqlovchi ajratilgan bo'lak vazifasida kelgan?

A) Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyoq, eshik yoni-da dag'-dag' titraydi.

B) Oyimni, ya'ni Xosiyat Suvonovani, mukofotlash-di.

C) Uning qo'lidan ushlab ichkariga, mehmonxona-ga, boshladi.

D) Bugun sizni yana, ikkinchi marta, kechirishdi.

15. Ruboiyni ichida o'qidi// yuzini tabassum qop-ladi. (Oybek)

Ushbu gapda // belgisi o'rni qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) ikki nuqta B) vergul
C) tire D) nuqtali vergul


Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA

16. Agar A, B, C va D sonlarining nisbati 2:3:4:5 kabi bo'lsa, $\frac{A+B}{C+D}$ ning qiymatini aniqlang.

- A) $\frac{20}{27}$ B) $\frac{3}{4}$ C) $\frac{5}{9}$ D) $\frac{9}{5}$

17. Agar rasmda berilgan parallelepipedning o'l-chamlari shu ko'rinishda bo'lsa, uning to'la sirtining yuzi nimaga teng bo'ladi (asosi kvadratdan iborat)?



- A) 250 B) 210 C) 230 D) 200

18. Mashina 100 km yo'lga 8 litr yonilg'i sarflay-di, A dan B gacha bo'lgan birinchi yo'lga 50 km/soat tezlik bilan 5 soat sarflaydi, ikkinchi yo'lga 80 km/soat tezlik bilan 3 soat sarflaydi, u qaysi yo'ldan yursa kam yonilg'i sarflaydi va necha so'mlik yonilg'i tejaydi (1litr=6000 so'm).

- A) 1-yo'lda 4800 so'm B) 2-yo'lda 4800 so'm
C) 1-yo'lda 3200 so'm D) ikkalasi teng bo'ladi

19. x bilan belgilangan yuk 2,5 kg bo'lsa, yana necha kg massa qo'yilsa, tarozi muvozanatda bo'ladi?

- A) 4 B) 2,5 C) 5,5 D) 4,5

20. Bir ishni Komronbek 20 kunda, Humoyun esa 30 kunda bajaradi. Ular ikkalasi birgalikda shu ishni necha kunda bajarishadi?

- A) 12 B) 15 C) 10 D) 16

21. 6; y; 4 va 5 sonlarining o'rta arifmetigi 5 ga teng. y ni toping.

- A) 9 B) 8 C) 4 D) 5


22. 100 ni 1;3;6 sonlariga proporsional ko'rinishda yozing.

- A) 10; 30; 90 B) 10; 30; 60
C) 20; 60; 20 D) 10; 60; 30

23. Agar 44a3 soni 3 ga qoldiqsiz bo'linsa, a ning barcha qiymatlari yig'indisini toping.

- A) 9 B) 10 C) 11 D) 12

24. Rasmda bir xildagi kublardan yasalgan jism berilgan. Agar kubning tomoni 2 cm.ga teng bo'lsa, berilgan shaklning hajmini toping.



- A) 120 kv cm B) 100 kv cm
C) 110 kv cm D) 90 kv cm

25. 20 ta sigirga 3 oyga 4 t ozuqa kerak. 15 ta sigirga 5 oyga qancha ozuqa kerak?

- A) 5 t B) 4,8 t C) 5,5 t D) 6

26. O'lchamlari 12 m, 10 m va 5 m bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped ko'rinishidagi basseynni suv bilan to'ldirishmoqchi. Agar quvurdan har minutda 1 kub metr suv basseynga tushsa, basseyn necha soatda to'ldi?

- A) 10 B) 100 C) 600 D) 60

27. $\frac{2}{3}$ qismining $\frac{3}{4}$ i -4 ga teng bo'lgan sonni toping.

- A) -4 B) -64 C) -8 D) -50

28. $51 - \frac{30}{31} = ?$

“... Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa “eh” deydi yigit emasman”.

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 6-varianti

A) $51\frac{1}{31}$ B) $\frac{45}{31}$ C) $50\frac{30}{31}$ D) $51\frac{929}{31}$

29. $4 \cdot \left[2\frac{2}{7} + 5\frac{3}{7} \right] - 8 \cdot \left[1\frac{2}{3} \right] \cdot [2, (9)]$ ni hisoblang.

Bu yerda [a] – a sonning butun qismi.

A) 15 B) 4 C) 37 D) 12

30. Do'konga har birida 25 tadan daftar bo'lgan bir nechta bog'lam va yana 15 ta daftar keltirildi. Hammasi bo'lib 340 ta daftar keltirilgan. Do'konga hammasi bo'lib necha bog'lam daftar keltirilgan?

A) 12 B) 13 C) 10 D) 23

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

31. Quyidagilardan qaysi biri Frada nomi bilan bog'liq?

- A) Doro I qo'shinlarining cho'l-u biyobonda yetti kun yo'l bosib aldanishi
B) O'rta Osiyoga bostirib kirgan yunon-makedon qo'shinlariga qarshi xalq qo'zg'oloni
C) Kir II boshchiligidagi forslarga qarshi olib borilgan qahramonona jang
D) Doro I hukmronligi davridagi Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olon

32. Qaysi javobda berilgan tomonlar qadimgi davrda Politimet daryosi bo'yida to'qnashishgan (jang qilishgan)?

- A) Doro III va Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari
B) Kir II va To'maris qo'shinlari
C) Spitamen va Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari
D) Makedoniyalik Aleksandr va Bess qo'shinlari

33. Ilk o'rta asrlarda qaysi tildan xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona, Sharqiy Turkiston, Xitoy hududlarida foydalanilgan?

- A) turkiy til B) sug'd tili
C) xorazm tili D) oromiy tili

34. Vaxshunvar ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoga kelib o'rtnashgan qaysi davlatning shohi bo'lgan?

- A) Kidariylar davlati B) Eftallar davlati
C) Xioniyar davlati D) Turk xoqonligi

35. O'rta asrlarda yashab o'tgan ajdodimiz Abu Mansur al-Moturidiy qanday nomga sazovor bo'lgan edi?

- A) “Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi”
B) “Hidoyat yo'lining sarboni”
C) “Arab va g'ayriarablar ustozini”
D) “Ikkinchi muallim”

36. 1404-yilda Samarqandda kim tomonidan madrasa qurdirilgan?

- A) Amir Temur
B) Mirzo Ulug'bek
C) Qutlug'nig'orxonim
D) Saroymulkxonim

37. Buxoro amirligida Bosh inoqning zimmasida quyidagi qaysi vazifa bo'lgan?

- A) chet mamlakat elchilari taqdim etadigan hujjatlar-ni qabul qilish
B) arablar jamoasi masalalari bilan shug'ullanish
C) soliq va boshqa yig'implardan tushgan mablag'larning belgilangan o'rinlarda qanchalik to'g'ri sarflanganligini nazorat qilish



D) kelgusida davlat mansablariga tayinlanishi mumkin bo'lgan xizmatchilarning faoliyatini tashkil etish

38. Tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriy o'z asarlaridan birida “Uning davlati va xalofati zamonida Mo-varounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab-yashnadi”, deya kimning davrini nazarda tutgan?

- A) Abdullaxon II
B) Ubaydullaxon II
C) Ubaydullaxon I
D) Navro'z Ahmadxon

39. “Tarixlar sarasi” (“Zubdat ut-tavorix”) asari kimning qalamiga mansub?

- A) Muhammad Hakimxon to'ra ibn Ma'sumxon to'ra
B) Erniyozbek o'g'li Muhammad Rizo
C) Amir Avazbiy o'g'li Shermuhammad
D) Abdulkarim Fazliy Namangoni

40. Toshkent nechanchi yilda Qo'qon xonligi tarkibiga qo'shib olingan?

- A) 1799-yilda
B) 1784-yilda
C) 1810-yilda
D) 1812-yilda

41. Mirkomil Mirmo'minboyev faoliyati bilan bog'liq javobni belgilang.

- A) 1910-yilda Buxoroda «Tarbiyayi atfol» («Bolalar tarbiyasi») jamiyatiga asos solgan
B) o'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklarni yaratgan
C) Chor mustamlakasi davrida yoshlarning chet el-larda ta'lim olishi uchun o'z hisobidan katta miqdorda mablag' ajratgan
D) 1920-yilda «Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi»ni tashkil etgan

42. Nima sababdan XIX asr so'nggi choragida Turkistondagi masjid va madrasalarning moddiy ahvoli yomonlashdi?

- A) diniy ilmlarni o'rganishga e'tiborning susayganligi
B) jadid maktablarining tashkil etilishi va mablag'larning yangi maktablarga sarf etilishi
C) diniy ruhoniylarning ta'qib ostiga olinishi, qozikalon lavozimining tugatilishi
D) vaqf yerlari nazoratining mustamlakachi hukumat qo'lga o'tishi

43. Nechanchi yildan boshlab Rossiyadan o'z-boshimchalik bilan ko'chib kelgan kishilar ham ma'muriyat ruxsati bilan ko'chirilganlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanishi mumkinligi e'lon qilangan?

- A) 1875-yil B) 1886-yil
C) 1890-yil D) 1892-yil

44. Qaysi ma'rifatparvar vatandoshimiz o'z us-tidan uyushtirilgan sud jarayonida “... Men to'g'ri-lik orqasida bosh ketsa “eh” deydi yigit emasman”, deb aytgan edi?

- A) Abdurauf Fitrat
B) Abdulhamid Cho'lpon
C) Abdulla Qodiriy
D) Abdulla Avloniy

45. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet ellarda o'qishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha “Umid” jamg'armasini tashkil etish to'g'risida farmoni qachon e'lon qilingan?

- A) 1997-yil B) 1994-yil
C) 2012-yil D) 2015-yil

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti magistranti,
«Limetless» o'quv markazi tarix va geografiya fanlari repetitori

6-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
B	C	A	B	C	D	B	A	D	C	A	C	D	A	B
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
C	B	B	D	A	D	B	D	A	A	A	C	A	B	B
O'ZBEKISTON TARIXI														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
A	C	B	B	A	D	D	C	B	C	C	D	D	C	A

O'zbek tilshunosligining islohotchisi

□ Mashhur turkiyshunos A.N.Kononov va faylasuf tilshunos S.N.Ivanovlarning shogirdi bo'lgan Hamid Ne'matov o'zbek tilshunosligi, turkologiya, umumiy tilshunoslik nazariyasi rivojiga, til tadqiqotlari sifatini yanada yuqoriroq bosqichga ko'tarishga munosib hissa qo'shgan olimdir.

Hamid Ne'matov o'zbek tili tadqiqotlarini lison – nutq dixotomiyasi asosida olib borishga, buning uchun har qanday taraqqiy etgan fanda bo'lgani kabi, umumiylik – xususiylik, imkoniyat – voqelik, mohiyat – hodisa kabi falsafiy, falsafa va dialektik mantiq kategoriyalari bilan qurollanishga da'vat etdi. Shundagina murakkab tabiatli lison(imkoniyat, mohiyat, invariant, abstrakt tizim)ni nutq (xususiylik, variant, hodisa) orqali tushunish mumkinligini uqtirdi.

Ma'lumki, analiz va sintez tilshunoslikning asosiy, tayanch metodlaridir. Odatda, o'zaro uzviy bog'liq, bir-birini shartlovchi bu metodlardan biri har bir fanning muayyan davrida nisbatan yetakchilik qiladi. XX asrning 70-yillarigacha bo'lgan o'zbek tilshunosligida analiz metodi ustuvor edi. Bu davrda o'zbek tili tizimi(butunligi) qismlarga, qismlar yana qismlarga ajratilib, binar oppozitsiyalarga qo'yilib, tashkil etuvchi birliklar, kategoriyalar, mikrosistemalar aniqlandi va ularga formal mantiq metodologiyasi asosida tavsiflar berildi. An'anaviy tilshunosligimiz shu yo'sinda faoliyat ko'rsatib kelayotgan edi. 80-yillardan boshlab tilshunosligimizda sintez metodi yetakchiligiga, avvalgi davrda ajratilgan qismlarni butunlashtirish, tashkil etuvchilarning o'zaro munosabati, strukturaning funksiyalarini aniqlash, semantik-grammatik maydonlar muammolari yoki sintez metodiga asoslangan sistemaviy tilshunoslik masalalari shakllana boshladi. Buni o'z vaqtida ilg'agan Hamid Ne'matov sistem-struktur tilshunoslikning g'oyalari, tushunchalari, metodologiya va metodlarini targ'ib qila boshladi va bu oqimning o'zbek tilshunosligidagi yetakchisiga aylandi.

Professor Hamid Ne'matov sintaksisni lison – nutq oppozitsiyasi va sistemaviylik tamoyilidan kelib chiqib, gapning eng kichik qolipi(Wpm) va uning kengaytiruvchilari nazariyasini yaratdi.


Ustoz o'z shogirdlari bilan sistem

leksikologiya sohasida keng ko'lamli tadqiqotlarni olib bordi. Natijada so'zlarning gipronimik, partonimik, funksionimik, graduonimik kabi munosabatlari, leksik-semantik qatorlar, maydonlar aniqlandi va tilning markaziy birligi bo'lgan so'zning mohiyati tomon yanada chuqurroq kirishga harakat qilindi. Shu asosda o'zbek tili grammatikasining talqini yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

Hamid Ne'matov o'z maslakhodshlari va shogirdlari bilan formal-funksional yoki substansial oqimni shakllantirishga harakat qildi. Bu yo'nalishning mohiyati shundaki, unda til birligining ichki mohiyati, mazmuni, tashkil etuvchilariga katta ahamiyat beriladi, har bir mikroelementning xususiyatlari o'rganilib, uning o'z butunligi(til birligi) faoliyatida tutgan o'rni, hissasi, imkoniyatlari kabilari aniqlanadi. Substansial oqimning tadqiq obyekti til birligidagi imkoniyatning voqelikka, lisonidan nutqqa yo'nalishi masalalaridir. Shu bois ushbu oqimda qolip(model), formula, invariant tushunchalari yetakchilik qiladi hamda logik, psixolingvistik, kognitiv, ekstralingvistik omillar bilan ish ko'riladi. Professor Hamid Ne'matovning ko'rsatishicha, o'zbek tilshunosligida bundan keyin bajariladigan tadqiqotlarning taraqqiyoti tilshunoslarning zamonaviy gnoseologiya, dialektik mantiq, dialektik falsafa, tabiiy fanlarning metodologik asoslarini bilishlari va ularni til tadqiqotlariga tatbiq eta olish darajasiga ham bog'liq.

Domla o'zbek tilshunosligi va turkologiyaning taraqqiyotini belgilab beruvchi istiqbolli dasturlar ham qoldirib ketdi. Uning leksik mikrosistema hamda turkiy tillar sintaksisini o'rganishga oid ilmiy-nazariy dasturlari shular jumlasidandir.

Hamid Ne'matov so'nggi yillarda tilda relyativlik, antropolingvistik, pragmalolingvistik kabi sohalar bo'yicha ham ma-



qolalar e'lon qilib, shuningdek, tamal toshlari vatanimizda qo'yilgan o'zbek gradual tilshunosligini zamonaviy lingvistik arenasiga olib chiqish uchun harakat qilayotgan edi.

Professor Hamid Ne'matov ona tili ta'limining tom ma'nodagi jonkuyari edi. U mustaqillik bo'sag'sida Respublika ta'lim markazining yetakchi mutaxassisi maqomida "O'qituvchilar gazetasi" (hozirgi "Ma'rifat")da ona tili ta'limi mazmuni, maqsadi, usuli va vositalarini o'zgartirishga oid bahs-munozaralar tashkil etishga boshchilik qildi. Natijada ona tili ta'limiga respublika o'qituvchilarining nuqtayi nazarlarini ifodalovchi "O'qituvchi", "Ijod", "Induktiv" kabi yangi muqobil dasturlar yaratildi va u tuman, shahar, viloyat, respublika bosqichlarida muhokama etildi hamda bunda H.Ne'matov yetakchiligidagi tayyorlangan "Induktiv" dasturiga katta ishonch bildirildi.

Shuningdek, dolzarb ilmiy-metodik muammolarni izchil hal etib borish uchun "O'zbek tili" doimiy anjumani ta'sis etildi va ushbu har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan anjumanga professor Hamid Ne'matov o'n yildan ortiq raislik qildi. Natijada maqsadga muvofiq ta'lim standartlari(DTS), darsliklarning yangi avlodi vujudga keldi. H.Ne'matov g'oyasi amalga oshib ona tili ta'limi induksiya bilan deduksiya tomon amalga oshirila boshladi.

Hamid Ne'matov yetakchiligidagi yaratilgan maktab darsliklari va qo'llanmalar yangiligi, mantiqiyli, yuksak didaktik ko'rsatmalarga boyligi bilan ajra-

lib turadi. Muallifning o'z maslakhodshlari bilan yaratgan oliy talim darsliklari hozirgi lingvistikaning so'nggi yutuqlarini aks ettirganligi, bo'lg'usi ona tili o'qituvchilarining falsafiy-mantiqiy mushohadalari oshirishga qaratilganligi bilan ham qimmatlidir.

Olim nafaqat tilshunos sifatida, balki filolog, turkolog sifatida respublika va undan tashqarida – hamdo'stlik davlatlarida, xorijda ham e'tirof etilgan. U islom falsafasini ham mukammal bilari va fisoniy hodisalar talqiniga asosli hamda ishonarli tatbiq qilardi edi. Hamid Ne'matov haqiqiy filolog edi. Uning mumtoz o'zbek adabiyoti bo'yicha xorijda ma'ruzalar o'qiganligi hammamizga ma'lum. Olim falsafa, mantiq, gnoseologiya fanlarini chuqur egallagan va ulardan o'z tadqiqotlari, ona tili ta'limi tizimida metodologiya sifatida foydalanardi.

Hamid Ne'matov tilshunoslikning deyarli barcha sohalar bo'yicha barakali ijod qildi. "Махмуд Кашгарский о тюркских языках"(hammualliflikda), "История лингвистических учений" (1981), "Функциональная морфология тюркских языков XI-XII в.в." (1989), "O'zbek tilining tarixiy fonetikasi" (1992), "Til va nutq" (hammualliflikda, 1993), "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari"(hammualliflikda, 1995), "Ona tili ta'limi mazmuni"(hammualliflikda, 1995), "O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari"(hammualliflikda, 1999), "So'z bag'rida ma'rifat"(2001), umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini 5-9-sinflari uchun yaratilgan ona tilidan DTS, o'quv dasturlari, darsliklari va boshqa ishlar shular jumlasidandir. Olimning tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalariga, ona tili ta'limi takomillashtirishga bag'ishlangan 300 dan ortiq ilmiy, ilmiy-metodik maqolalari fanimiz rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

1996-yili olimga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi faxriy unvoni berilgan. 2010-yilda esa "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlangan edi.

Baxtiyor MENGLIYEV,
G'ofir HAMROYEV,
shogirdlari

Ibratli umr

To'qson bilan to'qnashib...

□ Dunyoda shunday odamlar bo'ladiki, ular butun umrini o'zgarlar hayoti uchun baxsh etadi va fido-yiligi bois e'zozda bo'ladilar. Shunday insonlardan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Fayziyev Majid Teshaboy o'g'li 90 yoshni qarshilamoqda. Minglab shogirdlarni hayotning turli jabhalariga yo'llagan, 3 qiz, 4 o'g'lini tarbiyalab voyaga yetkazgan, 25 nabira-yu 30 evara ardog'ida bo'lgan ustozning hayot yo'llari ham bir tarixdir.

1931-yil 10-dekabrda Kattaqo'rg'on shahrining Mahalla guzarida tug'ilgan Majidning onasi turmush taqozosi bilan 1932-yil Kattaqo'rg'on tumanidagi Uyshun qishlog'iga turmushga chiqadi. Qahramonimiz shu qishloqda boshlang'ich sinfni tamomlab, Alijon qishlog'idagi 7 yillik maktabda o'qishni davom

ettiradi. 1947-yili Kattaqo'rg'on pedagogika bilim yurtini imtiyozli tugatib Qo'shrabot tumaniga(o'qituvchi yetishmaganligi sababli) ishlashga ketdi. Iqtidorli o'qituvchi 1953-1954-o'quv yilidan boshlab, 5-7-sinflarga fizika, matematika fanlaridan saboq berdi. 1955-yili o'qituvchilik diplomini olib, Ishtixon



tumanidagi 3-maktabda dars bera boshladi. 1958-1959-o'quv yilida Tojikistonning Stalinobod tumanidagi 7 yillik maktabda yuqori sinflarga fizika-matematikadan dars berdi. 1960-1961-yil-

larda Kattaqo'rg'on tumani Uls sovxozidagi 93-, 1961-1962-yillarda Chimboyobod kolxozidagi 97-maktabda dars berdi. 1963-1964-o'quv yilidan boshlab, Kattaqo'rg'on tumanidagi 43-maktab(hozirgi 57-maktab) da fizika-matematikadan saboq berdi. Shu yili SamDuning matematika fakultetiga sirdan o'qishga kirdi.

1972-1973-o'quv yilidan shu maktabga ilmiy bo'lim mudiri etib tayinlandi. Maktabning o'quv-tarbiyaviy ishlarini, moddiy-texnik bazasini mustahkamlab, tayanch maktab darajasiga ko'targanligi bois 1981-yili "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi"

unvoniga sazovor bo'ldi. 1986-yili esa "Mehnat faxriysi" medali bilan taqdirlandi.

Ustoz tarbiyalab katta hayotga yo'llagan o'quvchilari orasida professor, dotsent, fan nomzodlari, o'qituvchilar respublikamizning turli burchaklarida xizmat qilmoqda. Jumladan, Kattaqo'rg'on tumani Uyshun qishlog'idagi 102-maktabda ustozning shogirdlaridan faxriy ustoz Hasan Abdullayev, maktab direktori Robiya Hakimova, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Rayhon Jo'raqulova, matematika fani o'qituvchisi Farog'at Rajabovalar ustoz yo'lini davom ettirmoqdalar.

Hozir keksalik gashtini surib, e'zozda yurgan ustoz Majid Fayziyevning umi uzoq bo'lsin! Muborak 90 yoshi qulluq bo'lsin!

Kattaqo'rg'on tumanidagi
102-maktab o'qituvchilari
nomidan: Hasan ABDULLAYEV

Zamonamiz qahramonlari

Uyma-uy yurib

ota-onalarga tushuntirish berishdan erinmaydigan murabbiy

Erta tongdan Pop tumanidagi 25-maktab yonidan o'tsangiz, hovlida shogirdlari bilan jismoniy mashg'ulotlar olib borayotgan ustozni uchratasiz. U darslar boshlanguncha mashg'ulotlarini tugatib, kundalik vazifalarini bajarishga kirishadi. Tushdan so'ng ham uni gavjum maktab stadionidan topasiz. Sport saboqlarini yosh avlodga ulashib kelayotgan jonkuyar ustozning shogirdlari doim atrofida parvona.

Shogirdlari turli musobaqalardan medallar shodasi bilan qaytgan ustozning quvonchini ko'rib, "erishgan yutuqlaringiz haqida maqola yozay" desam, "qo'yaver, nonimizni halollab yesak, bolalar quvonsa, to'g'ri yo'lni tanlasa, shu kifoya" deganlari yodimda.

O'ttiz besh yildan buyon o'quvchilarga jismoniy tarbiya fanidan saboq berib kelayotgan Maxsudjon Omonov yurtimizning fidoyi muallimlaridan desam mubolag'a bo'lmaydi.

M. Omonovning shogirdlari gandbol bo'yicha hudud, tuman, viloyat, respublika chempionatlarida faxrli o'rinlarni egallab, nafaqat tuman, hatto viloyat sharafini respublikada himoya qilib kelmoqda.

Ustozning bolalar kelajagi uchun jon kuydirishiga ko'p bora guvoh bo'lganman. Bundan besh-olti yil oldin bitiruvchilarini kollejlarga yo'llashda ayrim shogirdlarining ota-onalari "qiz bolaga kim qo'yibdi to'pning orqasidan yugurishni, bo'ldi, sportni to'xtatadi", deya qarshi bo'lganda, uyma-uy yurib, ota-onalarga tushuntirish olib borgan. Qizlarning sport kollejiga hujjat

topshirishlariga yordam bergan. Kollejni bitirgunicha ham ustozlik qilib, shogirdlari yonida bo'lgan. Eng qizig'i, o'sha yili ustozning shogirdlari sportda erishgan yutuqlari tufayli Prezident qarori bilan imtiyozli ravishda davlat granti asosida o'qishga qabul qilindi. U kishining kelajakni to'g'ri belgilay olish salohiyati sabab, o'quvchilar o'z yo'lini topib, muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Umidli shogirdi Shohsanam O'rinovani o'z yoniga olib, 1-BO'SMDa faoliyat yuritib, o'quvchi-yoshlarga saboq berishga o'rgatib kelyapti.

Bugungi kun qahramonlaridan biri — M. Omonov o'z kasbining ustasi, kamtar inson. O'zi va shogirdlariga talabchan ustoz, oltmishni qoralayotgan bo'lsa-da, tetik va serg'ayrat, chaqqonligi kishi havasini keltiradi. U gandbol bo'yicha tumanda "maktab" yarata oldi.

Odina O'RINOVA,
Pop tumanidagi
25-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI KAFEDRALARIDA MAVJUD QUIYIDAGI BO'SH (VAKANT) O'RINLARGA

TANLOV E'LON QILADI:

Kafedra mudiri lavozimiga:

- "O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti" kafedrası (1).

Professor lavozimiga:

- "Chet tillari" kafedrası (1).
- "Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar" kafedrası (1).

Katta o'qituvchi lavozimiga:

- "Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO" kafedrası (1).
- "Islom tarixi va manbashunosligi – IRCICA" kafedrası (1).
- "Chet tillari" kafedrası (1).
- "Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrası (1).
- "Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar" kafedrası (1).
- "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" kafedrası (1).

O'qituvchi lavozimiga:

- "Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO" kafedrası (1).
- "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrası (1).
- "Arab tili va adabiyoti – al-Azhar" kafedrası (1).
- "O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti" kafedrası (1).

O'qituvchi-stajyor lavozimiga:

- "Chet tillari" kafedrası (1).

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 30 kun ichida quyidagi manzilga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin:

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy
ko'chasi, 11-uy, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi xodimlar bo'limi.
Murojaat uchun telefon: (71) 244-94-68, 244-94-66.

Eshmurodov Ziyodullo Oripovichning 04.00.16 – Kon mashinalari va 05.05.01 – Energetik tizimlar va majmualar ixtisosliklari (texnika fanlari) bo'yicha "Kon transport tizimlarida rostanuvchi elektr yuritmalari asosida energiya va resurstejamkor texnologiyalar" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/04.06.2021.T.06.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-noyabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, Mahmud Torobiy ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com

Movlonova Shaxnoza Sobirovnaning 14.00.09 – Pediatriya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Kichik yoshdagi bolalarda shifxonaga bog'liq bo'lgan zotiljam (tashxislash, klinik kechishi, davolash)" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSs) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Atadjanova Shaira Xalilovnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "O'smir qizlarda temir tanqisligi kamqonligining patogenetik asoslari (tibbiyot fanlari)" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Dusmuratov Mansur Baysoatovichning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'limda elektrodinamikani o'qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021. Ped.82.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Qarshiyev Rustam Jo'rayevichning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Tomchilatib sug'orish texnologiyasida irrigatsiya kanallaridan foydalanish samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021. T.111.04 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (99875) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: qmii@qmii.uz, kiei_info@edu.uz

Saidova Nilufar Ro'zimurotovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikaviy kompetensiyalarini shakllantirishda AKT vositalaridan foydalanish texnologiyalari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020. Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 13-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Toshkent pediatriya meditsina instituti tomonidan Davlat imtihon komissiyasining 2000-yil 22-iyundagi qaroriga binoan Seraya Alla Yurevnaga berilgan № 268571 (ro'yxat raqami 3872) raqamli O'zbekiston Respublikasi DIPLOMI va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Toshkent pediatriya meditsina instituti qoshida ikki yillik klinik ordinatorasida tayyorgarlik o'taganligi uchun Podgorenko Alla Yurevnaga (Toshkent pediatriya meditsina instituti tomonidan uning № 268571 DIPLOMdagi seriya (familiyasi) sharifi turmushga chiqqanligi munosabati bilan o'zgarish kiritilgan) 2002-yil 31-avgustda berilgan GUVOHNOMA yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Sevimli "Marifat"
gazetangizga
obuna bo'ling!



"MA'RIFAT" GAZETASIGA 2022-YIL UCHUN OBUNA BO'LIH TARTIBI:

☑ Endi tahririyatimizga murojaat qilib, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan obuna bo'lishingiz mumkin.

Telefonlar: (71) 233-56-36,

(71) 233-42-92,

(71) 233-85-09.

Bunda sizga telegram yoki elektron pochta orqali obuna blankasi jo'natiladi.

☑ 149 indeksi orqali imtiyozli, arzonlashtirilgan narxda obuna rasmiylashtirishingiz mumkin. Faqat bunda to'liq bir yilga obuna bo'lishingiz kerak bo'ladi. Bu indeks orqali bir yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm

☑ 150 indeksi orqali 1 yildan kam mudatga ham (3 oy, 6 oy) obuna bo'lishingiz mumkin. Bunda 1 yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **447 005**, Viloyatlar uchun **505 310** so'm.

☑ Klik va Payme ilovalari orqali ham onlayn tarzda obuna bo'lish imkoniyati bor. Illova orqali obuna bo'lsangiz yuqorida ko'rsatilgan narxdagi summani (Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm) kiritasiz. Obuna bo'lganingizdan so'ng 71 233-56-36, 71 233-42-92, 71 233-85-09 telefon raqamlari orqali tahririyat bilan bog'lanishni unutmang.

Bizga to'lov qilinganligi haqida fotoma'lumot va gazetani yetkazib berish manzilini yuborishingiz kerak.

Endi **Payme** va **CLICK** orqali
to'lov qilib obuna bo'ling!


Qo'shimcha xizmat
to'lovlarisiz tahririyat bilan
to'g'ridan-to'g'ri
obuna shartnomasini
tuzing.

Gazetalarimizga 2022-yil uchun obuna davom etmoqda!



Ma'rifat

Узбекистон
УЗБЕКИСТАНА



f facebook.com/marifat.uz

t t.me/marifatziyo

www www.marifat.uz

(71) 233-56-36

(99) 040-00-76

(71) 233-42-92

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4913. Tiraj 7268.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona - (71) 233-50-55;
kotiyyat - (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi -
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6436



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Nabatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Nabatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.